

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA OR`TA MAXSUS TA`LIM
VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

Qo`lyozma huquqida
UDK 811`373:811.512.133

RASULOVA MUHABBAT IXTIYOROVNA

**Ingliz va o`zbek tillarida kasbga oid
frazologizmlarning semantik –grammatik va uslubiy
xususiyatlari**

5A120102 - Lingvistika (ingliz tili)

Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan
dissertatsiya

Ilmiy rahbar: filologiya fanlari
doktori, professor **A.E.Mamatov.**

Ilmiy maslahatchi: filologiya fanlari
nomzodi, dotsent **A.A.Haydarov.**

BUXORO-2015

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

Fakultet – Filologiya	Magistrant:	Rasulova M. I.
Kafedra – Ingliz tili va adabiyoti	Ilmiy rahbar:	f.f.n.Mamatov A.E.
O'quv yili – 2014-2015 yil	Mutaxassisligi:	Lingvistika (ingliz)

**“INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA KASBGA OID
FRAZEOLOGIZMLARNING SEMANTIK-GRAMMATIK VA USLUBIY
XUSUSIYATLARI” MAVZUSIDAGI MAGISTRLIK DISSERTATSIYASI
ANNOTATSIYASI**

Mavzuning dolzarbligi. Frazelogizmlarning turli tillar doirasida qiyosiy o'rganish, ularning til va nutq bosqichlaridagi umumiylik va xususiylik dialektikasini yoritish, alohida olingan sohalarda frazeologik birliklar, ularning semantik-grammatik va nutqning vazifaviy uslublarida uslubiy xususiyatlarini ochib berish, ayniqsa, kasbga oid frazeologik birliklarning semantik, grammatik va emotsional – ekspressiv xususiyatlarini belgilash mazkur magistrlik **dissertatsiyasining dolzarbligini** belgilaydi.

Tadqiqotning maqsadi va vazifalari. Ingliz va o'zbek tillarida kasbga doir frazeologik birliklarning leksik-semantik, grammatik xususiyatlarini ochib berish, ularning emotsional-ekspressiv xususiyatlarini belgilash **dissertatsiyaning maqsadi** bo'lib hisoblanadi. Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi **vazifalar** belgilandi:

- frazeologik birliklarning jahon tilshunosligida o'rganilishini ko'rib chiqish, shu asosda ingliz va o'zbek tillari frazeologiyasining taraqqiyotiga munosabat bildirish;

- frazeologik birliklarning ma'nosini, uning funksional uslubiy xususiyatlarini ochib berish;
- frazeologik birliklarning uslubiy tasnifini belgilash;
- kasbga oid frazeologik birliklarning leksik-semantik va grammatik xususiyatlarini ochib berish;
- kasbga oid frazeologik birliklarning emotsional-ekspressiv xususiyatlarini ko'rsatish;
- kasbga oid frazeologik birliklarning ingliz va o'zbek tillarida qiyosiy tahlil qilish.

Tadqiqotning obyekti ingliz va o'zbek tillaridagi frazeologizmlar bo'lib hisoblanadi.

Tadqiqotning predmeti so'zlashuv va badiiy nutq uslublarida frazeologik birliklar hamda badiiy matn materiallaridir.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda qo'yilgan masalani yoritishda tilshunoslikning sinxron-tavsifiy, qiyosiy va semantik-stilistik tahlil usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. Tadqiqot ishining yangiligi ingliz va o'zbek tillarida kasbga oid frazeologik birliklarning leksik-semantik hamda grammatik xususiyatlarini qiyosiy tahlil asosida ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning nazariy va amaliy ahamiyati. Ish matnidan ingliz va o'zbek tillarida "Leksikologiya" va "Uslubiyat nazariyasi" kabi fanlarni o'qitishda keng foydalanish mumkin. Ishdan akademik litsey, kasb-hunar kollejlarda o'qitiladigan fanlar bo'yicha darsda hamda ilmiy maqola, tezislar yozishda foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Ishning qisqacha tavsifi. Magistrlik dissertatsiyasi kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

Ishning asosiy natijalari. Mazkur mavzu yuzasidan 4 ta maqola turli manbalarda chop etildi.

Asosiy xulosa va takliflar. Kasbga oid frazeologik birliklar badiiy asarlarning ta'sirchanligini oshirishda, ularda milliy mentalitetni shakllantirishga xos xususiyatlar ifodalangan bo'ladi. So'z san'atkorlari o'z asarlarining ta'sirchanligini, obrazlilikini oshirish maqsadida frazeologik birliklardan keng foydalanadi degan yaxlit xulosaga keldik.

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA OR`TA MAXSUS TA`LIM
VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

Qo`lyozma huquqida
UDK 811`373:811.512.133

RASULOVA MUHABBAT IXTIYOROVNA

**Ingliz va o`zbek tillarida kasbga oid
frazologizmlarning semantik –grammatik va uslubiy
xususiyatlari**

5A120102 - Lingvistika (ingliz tili)

Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan
dissertatsiya

Ilmiy rahbar: filologiya fanlari
doktori, professor **A.E.Mamatov.**

Ilmiy maslahatchi: filologiya fanlari
nomzodi, dotsent **A.A.Haydarov.**

BUXORO-2015

Kirish

Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi. Muhtaram Prezidentimiz Islom Abdugʻaniyevich Karimovning 2012 yil, 10-dekabrda “Chet tillarni oʻrganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi 18/75- sonli qarorlarida shunday fikrlar bayon etilgan: “ Oʻzbekiston Respublikasining “Taʼlim toʻgʻrisida”gi qonuni hamda kadrlar tayorlash milliy dasturini amalga oshirish doirasida chet tillar oʻqitishning kompleks tizimi, yaʼni uygʻun kamol topgan, oʻqimishli, zamonaviy fikrlovchi yosh avlodni shakllantirishga, Respublikaning jahon hamjamiyatiga yanada integratsiyalashuviga yoʻnaltirilgan tizimi yaratildi”.¹ Yaratilgan ushbu tizim asosida magistratura mutaxassisliklari uchun yangi DTS va oʻquv dasturlari yuzaga keldi. Boshqa sohalar qatori tilshunoslik sohasida ham mukammal tadqiqotlar amalga oshirilmoqda.

Tilshunoslikda oʻzining alohida oʻrniga va salmogʻiga ega soha – frazeologiya sohasi ham yangi bosqichga koʻtarildi. Frazeologik birliklar til egasi hisoblangan xalqning maʼnaviy madaniyati, urf-odati, kasbi, yashash joy va tarkibi, intilishi, voqelikka munosabati bilan chambarchas bogʻliqdir.

Frazeologik birliklar obrazlilik va emotsional-ekspressivlikni yuzaga keltiruvchi eng muhim vositalardan biridir. Ular badiiy, siyosiy va publitsistik matnlarning ifodaviy taʼsirchanligini oshirish uchun xizmat qiladi. Shu boisdan frazeologizmlar tilshunoslikning alohida sohasi hisoblangan uslubshunoslikda muhim ahamiyat kasb etadi. Frazeologizmlar ixcham, maʼno jihatdan salmoqli til birligi boʻlib, davr ruhiga mos keladi, chunki milliy qadriyatlar, urf-odatlar rivoj topib borayotgan davrda soʻzlovchidan har tomonlama ixcham, asosli, obrazli va taʼsirchan shaklda ifodalashni taqozo etadi.

¹ “Chet tillarni oʻqitish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 1875 sonli qarori. -T.:“Maʼrifat gazetasi”. 2012, 12 dekabr, 99-son.

Frazeologizmlarning turli tillar doirasida qiyosiy o'rganish, ularning til va nutq bosqichlaridagi umumiylik va xususiylik dialektikasini yoritish, alohida olingan sohalarda frazeologik birliklar, ularning semantik-grammatik va nutqning vazifaviy uslublarida uslubiy xususiyatlarini ochib berish, ayniqsa, kasbga oid frazeologik birliklarning semantik, grammatik va emotsional – ekspressiv xususiyatlarini belgilash mazkur magistrlik dissertatsiyasining dolzarbligini belgilaydi.

Tadqiqot obyekti va predmeti. Ingliz va o'zbek tillarida frazeologizmlar, so'zlashuv va badiiy nutq uslublaridafrazeologik birliklar hamda badiiy matn materiallari ishning obyekti va predmetini tashkil qiladi.

Tadqiqot maqsadi va vazifalari. Ingliz va o'zbek tillarida kasbga doir frazeologik birliklarning leksik-semantik, grammatik xususiyatlarini ochib berish, ularning emotsional-ekspressiv xususiyatlarini belgilashdan iborat. Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

– frazeologik birliklarning jahon tilshunosligida o'rganilishini ko'rib chiqish, shu asosda ingliz va o'zbek tillari frazeologiyasining taraqqiyotiga munosabat bildirish; ularning o'rganish obyekti va taraqqiyotini belgilash;

– frazeologik birliklarning ma'nosini, uning funksional uslubiy xususiyatlarini ochib berish;

– frazeologik birliklarning uslubiy tasnifini belgilash;

– kasbga oid frazeologik birliklarning leksik-semantik va grammatik xususiyatlarini ochib berish;

– kasbga oid frazeologik birliklarning emotsional-ekspressiv xususiyatlarini ko'rsatish;

– kasbga oid frazeologik birliklarning ingliz va o'zbek tillarida qiyosiy tahlil qilish.

Tadqiqot asosiy masalalari va farazlari. Ushbu dissertatsiya himoyasida quyidagi holatlar muhokama uchun kengash a'zolari hukmiga havola etiladi:

- frazeologik birliklarning o'rganish obyektini chuqur tahlil qilish;
- frazeologik birliklarning shakllanish va taraqqiyot bosqichlariga munosabat bildirish;
- kasbga oid frazeologik birliklarning leksik-semantik va grammatik o'ziga xosligini ikki ingliz va o'zbek tillar doirasida qiyosiy planda ochib berish.

Tadqiqotning metodologik asosi. Dissertatsion ishda ingliz va o'zbek badiiy va publicistik uslublarga xos ko'plab asarlardan foydalanildi. Ishda B. Yo'ldoshevning "O'zbek frazeologiyasi va frazeografiyasining shakllanishi hamda taraqqiyoti" nomli monografiyasi (Samarqand, 2007), N.N. Amosovning "ОСНОВЫ АНГЛИЙСКОГО ФРАЗЕОЛОГИИ", Москва, 1963; A. V Kuninning "курс фразеологии современного английского языка" Москва, 1986; SH. Rahmatullayevning "O'zbek tili frazeologiyasining bazi masalalari" Toshkent, 1969; A. Mamatovning "O'zbek tili frazeologiyasining shakllanishi", Toshkent, 1971 kabi ilmiy asarlardan nazariy manba sifatida foydalanildi, shuningdek, misollar ingliz va o'zbek adabiyoti badiiy asarlaridan tanlandi.

Tadqiqotning usullari. Borliqdagi narsa va hodisalar o'zaro bir-biri bilan bog'liqligi va doimiy rivojlanishda ekanini e'tirof etuvchi dialektik falsafa ishning metodologik asosini tashkil etadi. Tadqiqotda qo'yilgan masalani yoritishda tilshunoslikning sinxron-tavsifiy, qiyosiy va semantik-stilistik tahlil usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi.

- frazeologik birliklarning dunyo tilshunosligida o'rganilishi, uning o'rganish objekti va taraqqiyot bosqichlariga munosabat bildirildi;
- frazeologik birliklarning ma'nosi, uning funksional –uslubiy xususiyatlari qiyosiy planda ochib berildi;
- ingliz va o'zbek tillarida frazeologik birliklar uslubiy tasniflandi;
- kasbga oid frazeologik birliklarning leksik-semantik va grammatik xususiyatlari ochib berildi;

- kasbga oid frazeologik birliklarning emotsional-ekspressiv xususiyatlari ko'rsatildi;
- kasbga oid frazeologik birliklarning ingliz va o'zbek tillarida qiyosiy tahlil qilindi.

Tadqiqotning nazariy ahamiyati. Magistrlik dissertatsiyasining nazariy xulosalari ingliz va o'zbek tillari frazeologik sistemasini yanada batafsilroq o'rganishga imkon yaratadi. Ish matnidan ingliz va o'zbek tillarida “ Stilistika va matn tahlili”, “ Leksikologiya” fanlarini bakalavr yo'nalishida o'qitishda; “Badiiy matn tahriri “, “Uslubiyat nazariyasi “ fanlarini magistratura mutaxassisliklarida o'qitishda keng foydalanish mumkin.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati. Ishdan akademik litsey, kasb-hunar kollejlarda o'qitiladigan fanlar bo'yicha darsda hamda ilmiy maqola, tezislar yozishda foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Dissertatsiyasi tarkibining qisqacha tavsifi. Tadqiqot kirish, III bob , xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Ish 80 sahifani tashkil etadi hamda foydalanilgan ilmiy va badiiy adabiyotlar ro'yxatida 46 ta nom qayd etilgan, shuningdek internet saytlaridan ham foydalanildi.

I BOB

FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING O'RGANISH OBYEKTI VA TARAQQIYOT BOSQICHLARI.

1-bo'lim: Frazeologik birliklarning o'rganish obyekti.

Frazeologik iboralarning turli xil xususiyatlarini tashqi shaklga qarab tasnif qilish orqali ham aniqlash mumkin. Bu tasnifda ko'proq frazeologik iboralarning tarkibidagi so'zlar soniga qarab e'tibor beriladi. Tasnif natijasida iboralar tabiatiga ko'ra nechta so'zdan tashkil topganligini aniqlash mumkin. Ko'pgina tilshunolar frazeologik iboralar faqat ikki so'zdan ortiq bo'ladi degan fikrlarni bildiradilar. Ammo kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, frazeologik iboralar ikki, uch va undan ortiq so'zlardan iborat bo'ladi. Ammo ayrim tilshunolar bir so'zdan iborat iboralar ham bor deb fikr yuritadilar. Jumladan, professor A. Jafarovning fikricha bir so'zdan iborat iboralar idiomatik iboraning eng yuqori taraqqiyot bosqichida hosil bo'ladi. Bu turdagi iboralar qo'shma so'z yoki yakka so'z bilan ifodalanadi, ular to'g'ridan – to'g'ri fikrni anglata olmasligi jihatdan ham qo'shma so'zlardan farqlanadi. To'g'ri bir so'z orqali ham idiomatik ma'no anglashiladi. Lekin bunday so'zlarni ibora deyish qiyin. Chunki ibora so'zlar birikmasidan iborat bo'lishi kerak. Bu haqda V. V. Vinogradov, A. Abakumov, A. Shaxmatovlarning fikrlari qimmatga sazovordir.¹

Idiomatik so'zlar faqat yolg'iz so'zlardangina tashkil topib, idiomatik ma'no anglatadi. Lekin ibora aks ettirgan xususiyatlarni anglata olmaydi. Akademik V.V. Vinogradovning aytishicha, frazeologik birliklarning taraqqiyoti frazeologik butunlikdan boshlanib, frazeologik qo'shilmalarga aylanishi kerak. Frazeologik butunlikdan frazeologik chatishmalar, keyinchalik esa frazeologik qo'shilmalarga taraqqiy etib borishi kerak. Shu fikrga asoslanib Sh. Raxmatullayevning “

¹ Mamatov A.E. "O'zbek tili frazeologizmlarining shakllanishi." -T.:1997.-B.37.

idiomatik soʻzlar frazeologik qoʻshilmalar negizida vujudga keladi” degan fikrlari asoslidir.

Frazeologik birikmalar asosan soʻzlar birikmasidan iborat, boshqacha aytganda, frazeologizmlar tilning alohida birligi boʻlib, tuzilishiga koʻra erkin bogʻlanma yoki gapga teng, toʻliq yoki qisman semantik qayta shakllangan obrazli, turgʻun soʻz birikmalarini oʻz ichiga oladi. ¹ Frazeologizmlarning aksariyati ingliz tilida ham, boshqa xildagi tillarda ham xalq tomonidan yaratilgan, ularning mualliflari maʼlum emas, kelib chiqish manbalari aniq emas. Shu maʼnoda frazeologik olim A.V. Kunin ingliz tili frazeologizmlarining koʻpchiligining muallifi nomaʼlum boʻlib, ular xalq tomonidan yaratilgan degan fikrlarni asosli ravishda koʻrsatib oʻtgan. Ammo baʼzi frazeologik birliklarning kelib chiqish manbalarini aniqlash mumkin. Shu maʼnoda frazeologiya tilning umumiy tizimiga kiruvchi mikrosistema boʻlib, bu tizim oʻzida oʻtmish merosni, qadriyatlarni aks ettiradi, avloddan – avlodga oʻtadi. Tizimni tashkil etuvchi frazeologik birliklarning koʻpchiligi maʼlum tilning boyish manbaidir. Frazeologik tizimni frazeologik birliklar, ularning asosiy komponentlari oʻrtasidagi munosabatni tashkil etadi. Frazeologizmlar birdan ortiq soʻzlardan tashkil topgan, maʼno va shakl jihatdan turgʻun boʻlgan soʻzlar bogʻlanmasidir. Frazeologizmlar koʻchma maʼnoda, obrazli ifodalarda qoʻllaniladi hamda tarixiy qoʻllanish meʼyorlariga, usullariga ega boʻlib, ularning maʼnosi muayyan nutq jarayonida oydinlashadi. Frazeologizmlar soʻz birikmasi yoki gap shaklida boʻlsa ular nutq birligi boʻlgan gaplardan farq qiladi. Ular lugʻaviy birlik sifatida koʻp jihatdan soʻzlarga yaqin turadi, soʻzlarga xos boʻlgan juda koʻp xususiyatlar frazeologizmlarga ham xosdir. ²

Frazeologiyani obyektini belgilashda turli xil farazlar mavjud. Frazeologiyani obyektini faqat turgʻun birikmalar tashkil qiladi. Frazeologiya

¹ Yoʻldoshev B. Frazeologizmlarning adabiy til normasi munosabatiga doir. -T.:OʻTA.1992.3-son.-B.37-42.

² Yoʻldoshev B. "Frazeologik uslubiyat asoslari" SamarqandDU.:1999.-B.86.

fani frazeologik birliklarni ma'noviy struktural xususiyatlarini tadqiq qiluvchi, ularning til sistemasida paydo bo'lishi va nuqtda ishlatish xususiyatlarini o'rganuvchi fan deb ta'riflangan.

Frazeologik birlik esa bu o'z tarkibiga ko'ra turg'un til birligi bo'lib, ular bir butun manoga ega deya tariflangan.¹

M.N. Shanskiy va S.N. Ivanov "Современный русский язык" frazeologizmlar bir tomondan mustaqil so'z birikmalaridan ikkinchi tomondan esa alohida so'zlardan cheklash kerak deb yozgan va quyidagi g'oyalarni olg'a surganlar :

- Frazeologik birliklar bu ikki yoki undan ortiq urg'uli so'z xarakteriga ega bo'lgan, mazmuniga ko'ra butun va strukturasiga ko'ra turg'un til birligidir.

Boshqa bir farazga asosan esa frazeologiyaning obyekt sifatida ma'lum bir til istalgan so'z birikmasini frazeologiyaning obyekt deb qabul qilish fikri olg'a surilgan.

Ko'rinadiki, frazeologiyaning obyekt turlicha tushuniladi. Bazi tilshunoslar uning obyektiga turg'un so'z birliklarni kiritishsa, boshqalari esa istalgan so'z birikmasini frazeologiya fanining obyekt sifatida qarashadi. Bunday qarashlar albatta izoh talab etadi. Lekin 1 – farazni olg'a suruvchilar orasida ham birlik yo'qligini oldindan ta'kidlab o'tish lozim. Ulardan birlari frazeologiyaning obyekt faqatgina semantik jihatdan turg'un bo'lgan va bir so'zga teng bo'lgan hamda nominativ birlik deya so'z birikmalarinigina frazeologiyaning obyekt sifatida qabul qilishadi. Bu farazni A.M. Babkin, V.P. Jukov va boshqalar olg'a suradilar.

Boshqa frazeologlar esa frazeologiya obyekt tushunchasini nafaqat bir so'zga, balki gapga teng bo'lgan semantik jihatdan turg'un so'z birikmalari hisobidan kengaytirishadi. Ya'ni frazeologiya o'z ichiga nominativ birliklardan tashqari kommunikativ birliklarni ham qamrab oladi.

Mazkur faraz A.V. Kunin, A.D. Rayxshteyn va boshqalar tomonidan tasdiqlanadi.

¹ Панов Р.Н, Волкова Д.А и другие "Современный русский язык".-М.:1996.- С.120.

3 – guruh olimlar nafaqat semantik jihatdan turg'un bo'lgan balki istemolda qo'llaniladigan barcha turg'un so'z birikmalarini frazeologiya fanining obyektideya qarashadi. Bu o'rinda M.N. Shanskiy frazeologik chatishma frazeologik birlik va frazeologik munosabatlar qatorida nafaqat semantik, balki to'laligicha mustaqil so'zlardan tarkib topgan frazeologik iboralarni alohida ajratib ko'rsatadi. Shuning uchun u frazeologiya obyektini tushunchasini yoritarkan quyidagicha ta'kidlaydi:

So'z birikmalarini frazeologiya fanining tarkibiga kiritishimiz yoki undan chiqarishimiz mazkur birliklarning nominativ yoki kommunikativ birlik ekanligiga emas, balki ularning asrlar davomida istemolda singib ketganligi yoki muloqot jarayonidan to'la yo'qolib ketganligiga bog'liq.

Bu nuqtai nazar hozirgi kunda ko'plab tilshunoslar tomonidan qo'llab quvvatlanmoqda. U hozirgi zamon oily o'quv yurtlari uchun darslik va qo'llanmalardam joy olgan. V N Teliya hozirgi zamon frazeologiya obyektixususidagi fikrlarini umumlashtirarkan, quyidagicha yozadi: bazi olimlar frazeologiyaning ichiga faqat ikki guruhni – idiomalar va frazeologik birliklarni kiritadilar boshqalari maqollar va matallarni ham frazeologiyaning bir qismi deb hisoblaydilar. Bu guruhga bazida turli xil klishe, qanotli iboralar ham kiritiladi. Bu birliklarning hammasini bir xususiyat birlashtiradi: bir necha so'zdan iborat bo'lish va muloqotda ularga bo'lgan ehtiyojning kuchliligidir. Boshqacha qilib aytganda frazeologizmlar tarkibini tayyor holatda bo'lgan va avvaldan muloqotda ishlatilgan so'z birliklari tashkil etadi.¹

“Frazeologiya” atamasi yunoncha “frama”(phrasis- ifoda, nutq o'rami)so'zidan olingan bo'lsada, bu atama turlicha ma'nolarni ifodalash uchun xizmat qiladi. Shu sababdan frazeologiya atamasi tilshunoslikda ikki ma'noda qo'llaniladi: tildagi

¹ В.Н.Телия “Русская Фраzeология : семантический, прагматический или лингвокультурологический аспекты”

-М.:1996.-С.107.

mavjud frazeologik birliklarning jami ma'nosida, hamda shunday birliklarni o'rganuvchi soha ma'nosida. Demak, frazeologiya iboralar haqidagi ilm demakdir.

2-bo'lim: Frazeologik birliklarning shakllanishi va taraqqiyot bosqichlari.

Tilshunoslikning boshqa sohalari singari frazeologiya ham o'zining shakllanish va taraqqiyot bosqichlariga ega. Frazeologizmlar kelib chiqishi jihatdan juda qadimiy bo'lsa-da, frazeologiya fani qariyb ikki yuz yilni o'z ichiga oladi.¹ Frazeologiya ilmining asoschisi shveysariyalik olim Sharl Ballidir. U o'zining "Frantsuz stilistikasi" (1909) nomli asarida so'z birlashmalari, ya'ni frazeologik birliklarni tadqiq etuvchi maxsus boblar kiritgan. Ferdinand de Sossyur esa sintagma, uning belgilari haqida o'z qarashlarini bayon etgan. Tilda shunday tayor birliklar bor, ularning lisoniy tabiati ma'nosi va sintaktik xususiyatidan kelib chiqdi, bunday birliklar tayyor holda, an'anaga ko'ra qo'llanadi, degan edi.

Frazeologiya tilshunoslikning keyingi taraqqiyotida tez rivojlangan sohalardan biridir. Rus va ingliz tilshunosligida frazeologiya ancha ilgari o'rganila boshlangan bo'lsa, o'zbek tilshunosligida bu soha sistemali ravishda o'rganila boshlanganini o'tgan asrning 40-50- yillariga to'g'ri keladi. Bu davrda Sh. Raxmatullayev (1969), G.A.Bayramov (1970), G.X.Axunzyakov (1974), V.G.Uraksin (1975), L.K.Bayramova (1983), M.F.Chernov (1986) larning doktorlik dissertatsiyalari frazeologizmlar tadqiqiga bag'ishlangan.

Shuningdek, bir qancha olimlarning monografiya, darslik va o'quv qo'llanmalari nashr qilinib, frazeologiyaning rivojlanishiga muhim hissa bo'lib qo'shildi. Sh.Raxmatullayevning "O'zbek frazeologiyasining ba'zi masalalari" nomli monografiyasi bilan tildagi frazeologik birliklarni lug'aviy birlik sifatida o'rganishni asosladi.²

¹ Mamatov A.E. "Frazeologik stilistika masalalari". -T.:1992.-B.14.

² Raxmatullayev Sh. "O'zbek tili frazeologiyasining ba'zi masalalari". -T.:Fan.1996.-B.66.

Jahon tilshunosligida frazeologizmlar keng va tor ma'noda tushuniladi. Frazeologiyaning keng ma'noda tushunuvchi olimlar uning tarkibiga maqollar, matallar, aforizmlarni kiritadilar¹, tor ma'nodagi frazeologiya tarafdorlari esa frazeologik birliklarni ko'chma ma'noli turg'un birliklarni o'rganish bilan cheklanadilar².

V.V.Vinogradov rus frazeologizmlari klassifikatsiyasini ingliz frazeologizmlariga ham joriy etgan. Uning frazeologizmlar tasnif usuli ba'zi hozirgi zamon tilshunoslariga ma'qul bo'lmasada, bu usul semantik birikishiga asoslangan birinchi tasnif usulidir. G.V.Antrushina shuni ta'kidlaydiki, frazeologizmlarda semantik tasnif muhim sanaladi. Frazeologizmlar ma'nosi uning tarkibiy qismlarining ma'nosidan qanchalik ko'p farq qilsa, semantic birikuv darajasida shuncha yuqori bo'ladi. Shunga ko'ra V.V.Vinogradov frazeologizmlarni uch sinfga tasniflaydi.

1. frazeologik chatishmalar (phraseological fusions).
2. frazeologik qo'shilmalar (phraseological units).
3. frazeologik birlashmalar (phraseological collocations or combinations).

Frazeologik chatishmalar-komponentlarining ma'nosi butun birlikning ma'nosiga aloqador bo'lmagan frazeologizmlardir.

Frazeologik birlashmalar o'ziga xos valentlikka ega bo'lgan so'zlardan tashkil topgan. Bunday frazeologik birliklarning komponentlaridan biri o'zining to'g'ri ma'nosida, qolganlari metaforik ma'noda qo'llanadi. Frazeologik birlashmalar ma'lum darajada semantik jihatdan bo'linmasdir.

Shuningdek, A.N.Smirnistkiy, Z.N.Anisimova, A.V.Kumachova, T.N.Derbulova, N.N.Amosova, N.M.Shanskiy kabi qator olimlar tomonidan ilgari surilgan frazeologizmlar klassifikatsiyalari ham mavjud. Bular haqida ishning ma'lum bob va bo'linmalarida to'xtalamiz. Frazeologik birliklar ifoda plani bilan

¹ Виноградов В.В. "Лексикология и лексикография".-М.:1977.-С.8.

² Виноградов В.В. "Лексикология и лексикография".-М.:1977. -С.9.

mazmun planning o'ziga xos qarama-qarshiligi va birligi asosida yuzaga keluvchi murakkab hodisa bo'lgani uchun alohida yondashish va o'rganishini talab etadi.¹ Shu sababdan tilda mavjud frazeologik birliklarning leksik-semantik, struktural-grammatik, ekspressiv-uslubiy kabi tasniflari mavjud.

Bu tasniflar frazeologik birliklarning funkstional uslubiy xususiyatlarini tadqiq etish, shu asosda frazeologik lug'atlar tuzish, ularni nutqni ixcham va jozibali bayon etishda foydalanish yo'l-yo'riqlarini belgilaydi. Frazeologik birliklarni ingliz va o'zbek tillarida qiyosiy o'rganish, madaniyatimiz qadriyatlarini o'ziga xos xalq madaniyatini, urf-odatlarini, uni yangi yuksak pog'onaga ko'tarishini davr taqozo etmoqda.

Jahon tilshunosligida frazeologiya tez taraqqiy etayotgan tilshunoslik sohalaridan biriga aylandi. Jumladan, birgina turkiyshunoslikda frazeologiyani sistemali ravishda o'rganish o'tgan asrning 40 – 50 yillarida boshlandi. Shu davrda turli tillardagi frazeologik birliklarni grammatik, leksik – semantik jihatdan o'rganish sohasida muhim yutuqlar qo'lga kiritildi. Turkiy frazeologiyaning boshlovchilari, shubhasiz R. K. Kenesboyev va Sh.U.Raxmatullayevdir. Ularning o'tgan XX asrda yuzaga kelgan tadqiqotlari turkiy frazeologiyaning shakllanishi va taraqqiyotida katta rol o'ynaydi. Shu davrda frazemalarni intensiv o'rganish sohasida muhim yutuqlar qo'lga kiritildi. Jumladan, S. N. Muratovning “ Turkiy tillarda turg'un so'z birikmalari” nomli monografiyasi, SH.U.Raxmatullayevning “O'zbek frazeologiyasining ayrim masalalari”, G. A. Bayramovning “ Azarbayjon tili frazeologiyasining asoslari”, G. X. Axunzyanovning “Idiomalar(tatar tili materiallari asosida tadqiqoti)”, Z.G. Uraksinning “ Boshqird tili frazeologiyasi”, M. F. Chernovning “Hozirgi zamon Chuvash tili frazeologiyasi”, N. Sh. Shammayevning “ Ingliz va turkman tillaridagi frazeologik birliklarning

¹Yo'ldoshev B. Hozirgi o'zbek adabiy tilida frazeologik birliklarning funkstional-uslubiy xususiyatlari. Filologiya fanlari doktori dissertatsiya avtoreferati. – T. 1993. –B.47.

chog'ishtirma tadqiqi" nomli doktorlik dissertatsiyasi, bir qancha monografiyalar, nomzodlik dissertatsiyalari, ilmiy maqolalar yaratildi.¹

Rus tilidagi frazeologik birliklar bilan tadqiqotchilar XVIII asrdan boshlab shug'ullanishmoqda. M.V.Lomonosov rus adabiy tili lug'atini tuzae ekan, bunda so'zlar bilan bir qatorda xalq (Rossiya) maqollari, "frazeslar", va "idiomatizmlar" o'z ifodasini topishi lozimligini alohida ta'kidlagan edi. Rus filologiyasi fani tarixi V.L.Arxangelskiy, E.X. Rot, V.N. Teliya, L.I.Royzenson, Y.A.Malenovskiyning ilmiy tadqiqotlarida keng ifodalangan.

Frazeologiya nazariyasining ilk tadqiqotchisi shvetsar-fransuz tilshunosi Sharl Ballidir. Olim o'zining ikki yirik asari "Stilistika ocherki" (1905) va "Fransuz stilistikasi" (1909) nomli asarlarida so'z birikmalari ya'ni frazeologizmlarni tadqiq etuvchi maxsus boblar kiritgan edi. U o'zining asarlarida frazeologik birliklarning ichki va tashqi belgilarini o'zaro farqlagan edi. U ilmiy tadqiqotida tildagi shunday birliklarning structural xususiyatlari tashqi belgilari, semantik tabiati esa uning ichki belgilari hisoblanishini ko'rsatib o'tadi. Ferdinand de Sossyur esa "Umumiy tilshunoslik kursi"(1916) asarida sintagma ,uning birliklari haqida fikr yuritadi. Ingliz tilshunosligidagi frazeologizmlarning aksariyati "Oxford Dictionary Of English Idioms", "Longman Dictionary of English Language and Culture", "Word worth Dictionary of Phrase and Fable" kabi lug'atlarda berilgan. A.V. Kuninning "Англо – русский фразеологический словарь" (-M.1984); Smit L.P."Фразеология английского языка" (-M.1959), E.M.Soloduxaning "Проблемы интернациональной фразеологии (на материале языков славянской , германской, и романской групп)" doktorlik dissertatsiyasida, I. Xrazinikaning "Библизмы в русской фразеологии" nomzodlik dissertatsiyasida

¹ Yo'ldoshev B. "O'zbek frazeologiyasi va frazeografiyasining shakllanishi hamda taraqqiyoti" – Samarqand.:2007

frazeologik birliklarning semantik- grammatik xususiyatlari tahlil qilingan. Umuman olganda, frazeologiya keyingi yillarda tez suratlar taraqqiy etayotgan tilshunoslik sohalaridan biriga aylandi. Bu soha juda ko'p mamlakat olimlarining diqqatida bo'ldi. Frazeologik birliklarning tabiati va hosil bo'lish usullari A. M. Babkin, Y. A. Gvozdev ishlarida uchraydi. Frazeologik birliklarning o'zaro sinonimik, antonomik, variantdoshlik, omonimik xususiyatlari M.N Shanskiy , A. M. Melerovich , V. A. Yatselinka ishlarida keng tahlilga tortilgan.

Iboralarning morfologik strukturasi va paradigmaticasi haqidagi ilmiy asoslangan nazariyalar V. P. Jukov, A. M. Chepasova, L. V. Selgetkova tomonlaridan tadqiq qilingan. Frazeologik birliklarning gap tarkibidagi sintaktik vazifalari S. G. Gavrin, L. A. Kim, O. V. Shovkunova ishlarida ko'rsatib berilgan. Iboralarning qiyosiy, qiyosiy-tipologik tahlil masalalarini R. I. Popovich va boshqalarning ishlarida ko'rish mumkin. Baynalminal frazeologiya masalalari V. V.Akfenko, E. M. Soloduxaning ilmiy asrlarida asoslab berilgan. Ularning ishlari asosan ingliz va rus tillarida qiyosiy tipologiyasiga qaratilgan. Bunda frazeologik birliklar ikki til misolida tahlil qilingan.

Shuningdek, badiiy va publitistik uslub frazeologiyasi masalalari ham tilshunoslikda keng o'rganilgan. Bu soha V. N. Vakurov, M. A. Baxina, A. G. Lomov, I. Y. Lepeskov ishlarini misol tariqasida keltirish mumkin. Ilmiy ishlardan tashqari tilshunoslikda darslik va qo'llanmalar ham yaratilgan. A.V.Kunin, N.M.Shanskiy, V.P.Jukovalar frazeologiyaga oid yaratgan darslik va monografiyalari shular jumlasidandir. Frazeologiya va frazeologiyaning shakllanish tarixini o'rganishga L.I.Rayzenon, M.M.Kopilenko, E.X.Rog, V.N.Teliya, Y.A.Malenovskiy kabi yetuk olimlarning ishlari bag'ishlanganligini ko'rish mumkin.

Jahon tilshunosligida frazeologiyaning germanistika va romanistikasi erishgan yutuqlari bevosita yetuk olimlar N.N.Amosova, A.V.Kuninlarning ingliz

frazeologiyasi tadqiqiga bag'ishlangan ishlari katta ilmiy qiymatga ega. Nemis frazeologiyasining rivojlanishida I.I.Chernisheva, A.D.Rayxshteyn xizmatlari ulkan bo'lsa, fransuz frazeologizmlari ustida V.G.Gok, N.N.Kirilova, A.G.Nazaryan ilmiy tadqiqotlar olib borganlar.

O'tgan XX asrning so'nggi qirq yilida hamdo'stlik mamlakatlarida frazeologiya sohasida ilmiy qiymatga ega bo'lgan yuzlab ishlar yuzaga keldi. Ozarbayjon tilshunosligida bu sohada K.Y.Aliyev, G.A.Bayramov, A.Gurbanov kabi olimlar ilmiy izlanishlar olib borib, frazeologiya ilmining rivojlanishiga katta hissa qo'shganlar. Arman, boshqird, gruzin, tilshunosligida ham frazeologiya masalalari keng o'rganilgan. P.S.Bediryani, Y.U.Gevorkyan, Z.G.Uraksin, A.L.Onlani, A.A.Taxanshvili kabi olimlarning ilmiy izlanishlari aynan frazeologiya ilmining taraqqiyoti bilan bevosita bog'liq.

Frazeologiya tilshunoslikning alohida mustaqil sohasi sifatida shakllandi. Taniqli frazeolog olimi N.N.Amosova to'g'ri ta'kidlaganidek "bu lingvistik sohaning shakllanishi va taraqqiyoti ko'plab frazeolog olimlarning turli tillar bo'yicha olib borgan tadqiqoti samarasidir".¹ Tilshunoslikda frazeologiya fanining rivojlanish tarixini uch davrga bo'lib o'rganish mumkin:

1. XVIII asrning o'rtalaridan XX asrning 30 yillarigacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Bu davr frazeologik tadqiqotlarning yo'lga qo'yilishidir. Birinchi davrda yetuk tilshunos olimlar M.V.Lomonosov, V.I.Dal, A.A.Potebnya, F.F.Fortunatov, F.I.Buslayev, Charl Balli, A.A.Shaxmatovlarning ilmiy faoliyati rivojlandi va sohaning shakllanishida poydevor vazifasini o'tadi. O'sha davrda frazeologiya, leksikologiya, leksikografiya, ya'ni amaliy lug'atshunoslik obyekti bo'lib

¹ Амосова Н. Н. "Основы английской фразеологии" – М.: 1963.-С198.

xizmat qilgan va asosan frazeologik birliklarning lug'atlarda aks ettirishi, ularning ma'nosini, etimologiyasini izohlashga alohida ahamiyat berilgan.

2. XX asrning 30-50 yillari frazeologiya sohasining rivojlanishida ikkinchi davr hisoblanadi. Bu davrni frazeologiyaning mustaqil lingvistik soha sifatida shakllanishi davri ham deyish mumkin. Bu davrda yetuk tilshunos olimlar Y.D.Polivanov, V.V.Vinogradov, S.I.Abakumov, G.K.Danilov, G.O.Vinokur, A.I.Yefimov kabi tilshunoslar frazeologiya sohasida samarali mehnat qilib, qator ilmiy asarlar, monografiya, darsliklar yaratdilar. Bu davrda ko'plab nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalari frazeologizmlar tadqiqiga bag'ishlandi.

3. XX asrning 60 yillaridan boshlab hozirgacha frazeologiya sohasining uchinchi davridir. Bu davr frazeologik tadqiqotlarda va metodlarning qo'llanishi, frazeologik nazariyalarning rivojlanishi bilan bog'liq. Bu davrda ko'plab tadqiqotlar yuzaga keldiki, frazeologiya alohida soha sifatida tilshunoslikda o'z o'rnini va mavqeiga ega bo'ldi. Prof. Y.A.Malinovskiy "XX asrda rus frazeologik nazariyasining shakllanishi" nomli monografiyasini yaratdi. Monografiyada olim XX asrda frazeologik ta'limotning shakllanish tarixini 4 davrga bo'ladi:

- 1) XX asr boshlarida rus tilshunosligida vujudga kelgan frazeologik ta'limot (1900-1920 yillar);
- 2) Ulug' vatan urushigacha bo'lgan davrda rus tilshunosligida frazeologik ta'limotning taraqqiyoti (1920-1940 yillar);
- 3) XX asrning 50-60 yillarida rus tilshunosligida frazeologik ta'limotning rivojlanishi;
- 4) XX asrning 70-80 yillarida rus tilshunosligida frazeologik ta'limotning taraqqiyoti.

5) Frazeologiya sohasining alohida fan sifatida rivojlanishida V.V.Vinogradovning xizmatlari salmoqlidir. ¹U o'zining ilmiy asarlarida frazeologizmlarni uch sinfga bo'lgani haqida aytib o'tgan edik.

Frazeologizmlarning komponentlarining ma'nolari butun birliklarining ma'nolariga aloqador bo'lmagan birliklar frazeologik chatishmalardir.

Masalan: **heavy father** – teatr asaridagi asosiy rol; **to kick the bucket** – o'lmoq; **red tape** – byurokratik metod kabi frazeologizmlar yaxlit holda bir ma'no beruvchi frazeologizmlardir.

Frazeologik chatishmalar ma'nosi butunlay o'zgargan so'z birikmasidir. Ammo frazeologik qo'shilmalardan farqli o'laroq ularning ma'nolari tarkibiy qismlarining ma'nolaridan anglashilmaydi.

Frazeologik qo'shilmalar ma'nosi bir butun frazeologizmning frazeologik ma'nosidan anglashiladigan frazeologizmlardir. Metaforaga asoslangan ma'no ko'chish aniq va oydindir. Frazеologik qo'shilmalarning leksik komponentlari eng turg'un iboralar hisoblanadi. Masalan: *to look a gift horse in the mouth* (to examine a person critically; to find fault with smth one gained without effort); *to ride the high horse* (to behave in a superior, haughtily, overbearing way); *a big bug* (a person to importance); *to fish out of water* (a person situated uncomfortably outside his usual or proper environment).

Frazeologik material murakkab va ko'p aspektli bo'lgani uchun keying yillarda u turli xil metodlar, usullar yordamida o'rganilmoqda. Bu o'rinda frazeologik birliklarni o'rganishning quyidagi metod va usullarini alohida ta'kidlashga to'g'ri keladi: **Identifikatsiya metodi**. Uning yirik vakillari sifatida

¹ Yo'ldoshev B. "Hozirgi o'zbek adabiy tilida frazeologik birliklarning funksional-uslubiy xususiyatlari". Filologiya fanlari doktori dissertatsiya avtoreferati. – T.:1993. –B.47.

yetuk tilshunos olimlar Sharl Balli va A.V.Kuninlarni aytib o'tish joiz. **Kontekstologik metod.** Uning vakili N.N.Amosova bo'lib, asosan matnlar tarkibida keladigan frazeologik birliklarni o'rgangan. Shuningdek, **variatsion metod** (V.L.Arxangelskiy), **frazeologik applekatsiya metodi** (V.P.Jukov), **struktural-tipologik metod** (L.I.Rayzenzon, Y.K.Avaliani, Y.P.Solodub), **komparativ metod** (S.G.Gavrin), **iboralarni semantik doiralar asosida o'rganish metodi** (M.G.Tashev), **leksema va frazemalarni denotativ va konnotativ semalarga ajratib o'rganish metodi** (M.M.Kopilenko) kabilar. Yuqorida sanab o'tilgan metodlar bir-birini to'ldiradi va frazeologik birliklarning xilma-xil turlari, paradigmatic va sintagmatic xususiyatlarini, valentlik imkoniyatlarini chuqurroq tushunishga imkon beradi¹

Frazeologik birliklar mazmun planiga ko'ra leksik birliklarga yaqin turadi, ifoda planiga ko'ra ular sintaktik birlik (so'z birikmasi, gap)larga yaqindir. Ammo frazeologik birliklar so'zga ham, so'z birikmasiga ham, gapga ham to'la ma'noda teng emas. Frazeologiya masalalarini o'rganish, bu sohani tadqiq etish, uning mustaqil lingvistik soha sifatida shakllanishiga sabab bo'ldi. Tilshunoslik fanini nazariy va amaliy jihatdan boyitdi. Lekin bundan frazeologiya sohasiga doir o'rganilmagan muammolar qolmadi degan xulosa kelib chiqarmaslik lozim. Frazeologizm atamasi turkiyshunoslikda ham turlicha ma'nolarni ifodalash uchun xizmat qilgan. XIX asrda yashagan turkiyshunos olim Mirza Kozimbek o'sha davr ananalaridan kelib chiqib, rus tilida yozilgan boshqa tasviriy grammatikarda bo'lganidek o'z asarida "faza" so'zini "jumla", "gap" ma'nosida qo'llagan.² Frazeologik birikma deyilganda esa so'zdan yirik til birliklarini tushungan. Ozarbayjon tilshunoslari B.Cho'ponzoda va F.Og'azoda "Turk tili grammatikasi" asarida til ilmining bo'limlari haqida fikr yuritib, "Semasiologiya", "Stilistika" atamalari bilan birga o'sha davrda tilshunoslikda keng qo'llanishda bo'lgan

¹ Yo'ldoshev B. "Frazeologizmlarning adabiy til normasi munosabatiga doir". – T.: O'TA.1992.3- son.

² Abdullayev A. "Frazeologizmlarning ekspressivlik xususiyati". – T.: O'TA.1976. 5-son. –B.67.

“idiomatizm” atamasiga qarshi “idiotizm” so’zini ishlatgan. Frazeologiya turkiyshunoslikda nisbattan yosh sohalardan biridir, chunki uni sistemali ravishda o’rganish, frazeologik birliklarning semantik-grammatik funksional xususiyatlarini o’rganish XX asrning 40-50 yillaridan boshlandi. Frazeologik birliklarning funksional jihatdan so’zga yaqin ekanligini hisobga olib, ayrim tilshunoslar ularni leksik so’z birikmalari yoki leksik birliklar deb hisoblaganlar hamda sintaksis yoki yasalish sohalarining o’rganish obyekti doirasiga kiritganlar. Rus tilshunosligida bo’lganidek, turkiyshunoslikda ham frazeologiya doirasini tor va keng ma’noda tushunish ham davom etmoqda. Frazeologizmlarga keng ma’noda barcha turg’un birikmalar (maqollar, matallar, idiomatik birliklar, ularning noidiomatik turg’un frazeologik guruhlari va juft so’zlar) kiradi. Ularning birlashtiruvchi umumiy xususiyati turg’unlik va tilda tayyor holda mavjudligidir.¹

S.K.Kensboyev frazeologiyani tor ma’noda tushunish uchun bevosita asos bo’ladigan guruhlarni alohida ajratib ko’rsatgan. Tilshunoslikda “frazeologiyaning obyekti alohida ajratilgan til birligi sifatida qo’llanuvchi turg’un so’z birikmalaridir” degan fikr mavjud. Bu fikr olg’a surilgach, tilda “turg’un birikma” tushunchasining mohiyatini ochib beruvchi ilmiy ishlar yuzaga keldi. Frazeologik birliklar turg’un birikmalardan farq qiladi. Bu farqlar quyidagilar:

a) semantik yaxlitlik; b) obrazlilik; c) ko’chma ma’nolilik.

Frazeologiya sohasida qiyosiy-tipologik tadqiqotlar olib borish frazeologiyaning umumnazariy muammolarini hal etishga keng yo’l ochadi. Umuman olganda frazeologik birikmalarning shakllanish manbalarini etimologik jihatdan tahlil etishga nisbattan ancha keng mazmunga ega. Bu umumfilologik muammo bo’lib, eng qadimgi, dastlabki filologik modellarning shakllanish bosqichlarini aniqlash muhim semiotik masala sanaladi.² Frazeologik birikmalarni

¹ Mamatov A.E. “O’zbek tili frazeologizmlarining shakllanishi”. – T.:1997.-B.45.

² Bafoeva M. Badiiy nutqda frazeologik sinonimlardan foydalanish.-T.:O’TA.1992.-B.67.

turli narsa, hodisa va joy nomlari, kishi nomlari bilan bog'liq o'rganish ham hozirgi zamon tilshunosligida dolzarb masalalardan sanaladi. Til tadqiqotchisi D.Niyazmetova "Ingliz tilida oziq-ovqat komponentli frazeologizmlarning lingvistik tadqiqi" (Bibliya materiallari) maqolasida frazeologizmni lingvokulturologiyada o'rganish dolzarb va munozarali masalalardan biri ekanligini ta'kidlaydi.¹ Bibliyaga bog'liq bo'lgan oziq-ovqat komponentli frazeologizmlarning semantik, lingvokulturologik xususiyatlarini aniqlashda, lug'atlarni tahlil qilishda lingvistik tahlil va statistik metodlar qo'llanishini kuzatish mumkin.

Muqaddas diniy kitobdan kelib chiqqan so'z va iboralar S.Stoffenning "Studies in English, Written and Spoken" kitobida keng taqdim qilingan. "Scriptural phrases and Allusions in Modern" bobida olim Bibliya iboralarini va ularning etimologiyasini o'rganib ilmiy jihatdan tahlil qilladi. G'arb tilshunosligida bibliyazmlarni o'rganish yana L.P.Smit nomi bilan bog'liq. U o'zining "Ingliz tili frazeologiyasi" kitobida Bibliya iboralariga alohida bo'lim bag'ishlab, ularni o'rgangan. Muallif "Ingliz tilidagi Bibliya abarotlari va iboralarining soni shu darajada ko'pki, ularni yig'ish va sanab chiqish oson vazifa emas" deb yozadi.² L.P.Smit ingliz tili nafaqat bir talay Bibliya so'zlarini, balki o'zida qadimgi Yevrey va Yunon idiomalari so'zma-so'z tarjimasini namoyish qiladigan bibliya idiomatik iboralarini ham o'z ichiga oladi deb ta'kidlaydi. Tahlillar natijasida Bibliya bilan bog'liq bo'lgan oziq-ovqat komponentli frazeologik birikmalarga misol qilib quyidagilarni keltiramiz:

¹ Niyazmetova D. "Ingliz tilida oziq-ovqat komponentli frazeologizmlarning lingvistik tadqiqi (Bibliya materiallari asosida)". BuxDU Ilmiy Axboroti. 2012.4-son.-B.43.

² Niyazmetova D. "Ingliz tilida oziq-ovqat komponentli frazeologizmlarning lingvistik tadqiqi (Bibliya materiallari asosida)". BuxDU Ilmiy Axboroti. 2012.4-son.-B.90.

- *Adam' apple* – qo'shtomoq, kekirdak olmasi;
- *The apple of Sodom* – chiroyli, ammo aynigan ho'l meva;
- *Milk and honey* – to'kin-sochinlik, mo'l-ko'llik;
- *Manna from heaven* – zor-intizor bo'lib kutmoq;
- *A forbidden fruit* – ta'qiqlangan ho'l meva

Bibliyaga asoslangan frazeologizmlar ingliz tilidagi oziq-ovqat komponentli frazeologizmlar tarkibida “apple”, “bread”, “milk”, “fat”, “olive” kabi oziq-ovqat nomlari mavjud. Ingliz tilida joy nomlari bilan bog'liq frazeologik birliklar ham mavjud. Ularning tahlil va tadqiq tadqiqoti M.Rajabovaning ilmiy ishida uchraydi.¹ Joy nomlarini o'rganish nafaqat tilshunoslikning, balki tarix va geografiyaning obyekt sifatida ham qaraladi. Joy nomlari bilan kelgan frazeologizmlar tarkibida lingvomadaniy tadqiq qilish, ularning milliy, madaniy tomonlarini yoritib berish zamonaviy tilshunoslikning dolzarb masalalaridan biridir. Joy nomlari bilan bog'liq frazeologizmlarga quyidagi birliklarni misol qilib keltirish mumkin: *have kissed the Blarney stone* – tilyog'lamachi, xushomadgo'y. Irlandiyada Blarni qasri oldida katta bir tosh bo'lib, ingliz xalqi afsonalariga ko'ra, bu toshni o'pgan odam xushomadgo'ylik, laganbardorlik illatiga ega bo'ladi; *go for a Burton* – o'lmoq, ko'z yummoq, izsiz yo'qolmoq. Barton – Staffordshir viloyatidagi pivo ishlab chiqaradigan kichik shahar. Bu iborani britaniyalik uchuvchilar birinchi marta II jahon urishi davrida o'zlarining urushda halok bo'lgan quoldosh do'stlarini eslab ishlatgan. L.P. Smit ingliz tili nafaqat bir talay Bibliya so'zlarini, balki o'zida qadimgi Yevrey va Yunon idiomalari so'zma – so'z tarjimasini namoyish etadigan Bibliya idiomatik iboralarini ham o'z ichiga oladi, deb ta'kidlaydi.² Masalan,

¹ Rajabova M. “Ingliz tilida joy nomlari bilan kelgan frazeologizmlarning lingvo-madaniy talqini”.– BuxDU Ilmiy Axboroti. 2012. 4-son.-B.54.

² Niyazmetova D. “Ingliz tilida oziq-ovqat komponentli frazeologizmlarning lingvistik tadqiqi (Bibliya materiallari asosida)”. BuxDU Ilmiy Axboroti. 2012.4-son.-B.90.

Adam's apple – oziq-ovqat komponentli frazeologik birlik – “qo'shtomoq”, “kekirdak olmasi” deb tarjima qilinadi.

- George entered the office of the property broker, a little bold, old man with a thin neck and prominent **adam's apple**.

A forbidden fruit – ta'qiqlangan ho'l meva

- It is somewhat ironic that many places which need water most critically have here reserves their front yard – California and Texas for example. Yet the salt in the sea water makes it **a forbidden fruit**.

Muqaddas diniy kitob Bibliya ingliz tilidagi ko'pgina oziq-ovqat komponentli frazeologizmlarning kelib chiqishiga asosiy manba hisoblanadi.

Kasbga oid frazeologizmlar ham tilning lug'at sostavini boyitishga xizmat qiladi. Har bir kasbga oid frazeologik birliklar ingliz tilida mavjud bo'lib, ularning leksik-semantik, grammatik va uslubiy xususiyatlarini tahlil qilish asosiy maqsadimizdir.

Kasbga oid frazeologik birliklar so'zlashuv nutqidan tashqari badiiy(uslubda) nutqda ham ko'p uchraydi. Ular badiiy asar tilini boyitadi, uning obrazlilikini hamda emotsional-ekspressivligini ta'minlaydi.

Masalan: **baker – nonvoy** ; shu so'z bilan kelgan frazeologik birliklar :

to spell the baker; baker's dozen; to candlestick maker; pull baker.

- Mrs. Yoe has been out of a dozen times, looking for you pip. And she's out now, making it a **baker's dozen**. (Ch. Dickens.)

Hunter – ovchi ; lion hunter

- They could see the tall figure and lose many of the lion hunter dominating the little group. (E. Hemingway)

Nurse – dry nurse

- But, didn't you tell me you were going to make a genius of him? I know what that means

You will **dry nurse** him till some day he is able to understand you.

(H.de Balzak)

Xullas, frazeologik birliklar qaysi tilga yoki mavzuga oid bo'lmasin ular til egasi bo'lgan xalqning turmush tarzi, urf-odati, milliy madaniyati, og'zaki ijodda tasvirlangan ruhiy kechinmalari, bugungi va ertangi kun orzu – istaklari ifodasi asosida yuzaga keladi. Boshqacha aytilganda frazeologizmlar xalq tomonidan yaratilgan til birligidir. Shu sababdan frazeologizmlarda intensivlik ifodalash darajasi ham kuchlidir. Intensivlikni ifodolovchi frazeologik birliklar struktural tahlili natijasiga ko'ra adv+verb modelining faolligi qayd etiladi.¹

Frazeologik birliklarning semantik tasnifi tilshunoslar tomonidan turli mezonlar asosida tahlil qilingan. Professor N.N. Amosovning tasnifida frazeologik birliklar ikki guruhga ajratiladi.

1. Idiomalar
2. Frazemalar

Frazemada so'zning birinchi komponenti o'z ma'nosida ikkinchi komponenti esa idiomatik ma'noda bo'lib, ular bir – biri bilan shu tarzda bog'lanadi.

- To earn good money – to earn a lot of money

Idiomada har ikki komponent ham idiomatik ma'noda bo'ladi.

- A pretty kettle of fish – a mix up, a great state of confusion.

It refers to a situation, not a person.

Intensivlikni ifodalashda so'z ma'nosini kuchaytirishda idiomalar ustunlikka ega.

Shunday qilib, umumtilshunoslikda frazeologiya alohida soha sifatida shakllandi, keying yillarda uning o'rganish obyekti kengaydi, shu asosda ilmiy ishlar yuzaga keldi. Frazeologik lug'atlar yaratildi, darslik va o'quv qo'llanmalari paydo bo'ldi. Frazeologik birliklarning funksional- uslubiy xususiyatlari ham tadqiq etildi, uning taraqqiyot bosqichlari belgilandi. Taraqqiyot bosqichlarining har birida frazeologik birliklarning ma'lum bir til doirasida semantik- leksik, grammatik xususiyatlari

¹ Haydarov A., Choriyeva Z. "Ingliz tilida frazeologik birliklarning semantik-grammatik va uslubiy xususiyatlari. Tilning leksik-semantik tizimi va qiyosiy tipologik izlanishlar: sinxroniya, dioxroniya materiallar to'plami"– T.: Muharrir. 2012. –B.8-10.

alohida ilmiy ishlar asosida tahlil qilindi. Frazeologik birliklarning uslubiy maqsadlarda ijodiy foydalanish usullari adabiy til normasiga yangi shakllanayotgan frazeologiya ilmining rivojiga ulkan hissa bo'lib qo'shiladi. Shuningdek, frazeologik birliklar tilda qator funksiyalarni bajarishi ilmiy asoslandi.

II BOB

FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING SEMANTIK-GRAMMATIK VA FUNKTSIONAL XUSUSIYATLARI.

1-bo'lim: Frazeologik birliklarning umumiy tavsifi.

Frazeologiya xalqlarning jonli va ajoyib urf-odatlarini, ananalarini va ertaklaridan namunalarni jamlagan rasmlar ko'rgazmasiga o'xshaydi. Frazeologiya lug'atlarning nafaqat eng rang-barang, balki eng demokratik qatlami hamdir va bu qatlam asosan "jonli" nutq vositasida boyiydi. Frazeologiya dastlab adabiyotshunoslikda paydo bo'lgan. Ma'lum bir asarni bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilganda turg'un so'zlar bog'lanmasini aynan tarjima qilish mumkin bo'lmay qolgan. Bunda o'sha tillarda mavjud bo'lgan frazeologizmlar o'rganila boshlangan. Frazeologiya atamasi dunyo filologiyasida 1558-yilda ingliz adabiyotshunos olimi Neandr tomonidan birinchi marotaba qo'llanilgan. U badiiy asarlarni tarjima qilgan ekan, shu atamani ishlatishga majbur bo'lgan. Frazeologik materiallarning ko'pgina qismi lug'at va boshqa adabiyotlarda mujassamlashgan bo'lsada, G'arbiy Yevropa va Amerikaning tilshunoslikka oid adabiyotlarda frazeologiya nazariyasiga oid ilmiy ishlar ham uchraydi. Yaqin davrgacha ingliz frazeologiyasi masalalari grammatika, stilistika, leksikografiya va til tarixi doirasida o'rganib kelingan. Barcha tillarda frazeologiya leksikologiyaning bir bo'lagi sifatida o'rganilardi. Tilshunoslikning rivojlanishi jarayonida frazeologiya tilshunoslikning mustaqil sohasi sifatida qabul qilindi va o'rganilib kelinmoqda. Shuni ta'kidlab o'tish lozimki, ingliz frazeologiyasini o'rganish bo'yicha Rossiya va Yevropaning boshqa qator mamlakatlari tilshunoslari ko'pgina ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirishdi. Anchagina ijobiy natijalarga erishildi. Fransuz tilshunosi Sharl Balli frazeologiya atamasini fanga kiritgan bo'lsada, bu atama Amerika va G'arbiy Yevropa tilshunoslarining ishlarida o'z aksini topgan. Balli frazeologiyani stilistika tarkibiga kiritadi. Frazeologiyani tilshunoslikning mustaqil

bo'limi sifatida o'rganish masalasi atoqli rus tilshunosi Y.D.Polivanov tomonidan ilgari surildi. Uning ta'kidlashicha, leksika alohida so'zlarning ma'nosini, morfologiya so'zlarning shaklini, sintaksis esa so'z birikmalarining shaklini o'rganadi. Uning fikricha, ana shu til sohalari barobarida ma'lum bir so'z birikmalarining ma'nosini o'rganuvchi alohida sohaga ham ehtiyoj seziladi. Y.D.Polivanov frazeologiyaning tilshunoslikda mustahkam o'rin egallashiga ishonchi komil edi va shunday bo'ldi ham. Frazeologiyani tilshunoslikning mustahkam sohasi sifatida o'rganish masalasi rus olimi V.V.Vinogradov tomonidan ilgari surilgan. Vinogradovning buyuk xizmati shundaki, u frazeologik birikmalarni semantik jihatdan guruhlariga ajratdi. Ammo uning xizmatlariga qaramay, frazeologiya leksikologiyaning bir bo'limi sifatida qolaverdi, chunki frazeologiya tilshunoslikning mustaqil bo'limi bo'la olishini isbotlovchi asosiy tushunchalar ishlab chiqilmagan edi. Shunday qilib, frazeologiyani tilshunoslikning bir bo'limi sifatida o'rganish davom etdi. Y.D.Polivanov va V.V.Vinogradovdan so'ng birinchi bo'lib frazeologiyani tilshunoslikning mustaqil bo'limi sifatida o'rganish masalasini ilgari surgan olim B.A.Larin edi. U frazeologiya sohasida yetarlicha ilmiy ishlar qilinmaganini ta'kidlab o'tdi.¹

A.V.Kuninning fikricha, frazeologiya leksikologiya bo'limi doirasidan chiqqan, uning ko'lami va nufuzi ancha ortdi. Shunday qilib, hozirgi ko'pgina zamonaviy tillarda frazeologiya tilshunoslikning alohida bo'limi sifatida o'rganilmoqda. Frazeologiya sohasida ko'plab bir-biriga teskari fikrlar bildirilgan bo'lsada, ilmiy ishlar qilindi. N.N.Amosova, A.V.Kunin, B.A.Larin, V.A.Arxaangelskiy, V.V.Vinogradov, A.U.Smirnitskiy, S.S.Gorelik, I.A.Melchuk, I.I.Rezvin kabi tilshunoslarning bu sohaga qo'shgan hissalarini buyukdir. Frazeologiya tilshunoslikning umumiy sistemasiga kiruvchi mikrosistema

¹ Кунин А.В. “Курс фразеологии современного английского языка”. – М.: 1986.-В.187.

hisoblanadi. Tilshunos olim V.A.Arxangelskiy frazeologiya sistemasining xususiyatlarini shunday tavsiflaydi: “Frazeologik sistema o’zida o’tmish merosini, qadriyatlarini aks ettiradi, u avloddan avlodga o’tadi. Sistemani tashkil qiluvchi frazeologik birikmalarning ko’pligi, til va nutqning boyib borishi – bu omilga asosiy sababdir”.¹ Frazeologik sistemani frazeologik birliklar komponentlari o’rtasidagi munosabatlar tashkil etadi. Shunday qilib, frazeologik mikrosistema ikkita bir-biriga bo’g’liq sistemadan tashkil topgan o’zaro munosabatlar sistemasi va tuzilish sistemasidir. Frazeologiyaning tadqiqot obyekti tilning frazeologik mikrosistemasi va uning qonuniyatlaridir. Lekin frazeologiyaga oid ko’pgina savollar, masalalar o’z yechimini kutmoqda, frazeologik birliklarga oid qonuniyatlar to’laligicha ochilmagan, frazeologik daraja va frazeologik ma’no yetarlicha asoslanmagan, qo’shma so’z va frazeologik birlik o’rtasidagi chegara hamma vaqt ham aniq emas, frazeologiya va frazeomatika aniq belgilanmagan. O’zbek tilshunosligida frazeologizmlarni o’rganish 1950 yillarda boshlandi. Bu sohada Y.Pinxasov, M.Hasanov, I.Qo’chqortoyev, Sh.Raxmatullayev, A.Mamatov kabi taniqli tilshunoslar ilmiy tadqiqot olib bordilar. O’zbek frazeologiyasi sohasida tilshunos olim Sh.Raxmatullayev qo’shgan hissasi ulkandir. Bu olim o’zbek iboralarining grammatik xususiyatlarini keng tadqiq qildi. U o’zbek frazeologik birliklarini lug’aviy birlik sifatida o’rganishni boshlab berdi. uning ilmiy tadqiqotlari va bu ilmiy faoliyatning mevasi bo’lgan “Frazeologik birliklarning asosiy ma’no turlari” (1955), “O’zbek frazeologiyasining ba’zi masalalari” (1966), “Nutqimiz ko’rki” (1970), “O’zbek tilining izohli frazeologik lug’ati” (1978) kabi qator kitoblari o’zbek tilshunosligida muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega. O’zbek frazeologiyasining xuddi ingliz frazeologiyasi kabi hajmi, o’rganish obyekti masalasi atrofida hali ham munozara bo’lib turganiga qaramay olimlar frazeologik boyliklarni turli nuqtalardan yondashib o’rganishni davom ettirmoqda. Ikki yoki undan ortiq so’zdan tarkib topgan va yaxlit bir

¹ Mamatov A.E. “O’zbek tili frazeologizmlarining shakllanishi”. – T.: 1997.-B.98.

ma'no ifodalaydigan, grammatik va semantic jihatdan bo'linmaydigan va odatda so'z ekvivalenti bo'lgan til birligi – frazeologik birlik yoki frazeologizm deyiladi.¹

Ingliz tilidagi ba'zi frazeologizmlar:

- Red tape, in a brown study, Hobson's choice, to kick the bucket, to leave somebody in lurch, to set one's cap at somebody, to stand to one's guns, to catch at a straw.

O'zbek tilidagi ba'zi frazeologizmlar:

- Qo'y og'zidan cho'p olmagan, og'zi qulog'ida, sirkasi suv ko'tarmaydi, o'takasi yorilmoq, sichqonning ini ming tanga, kovushini tog'rilab qo'ymoq, do'ppisi yarimta, yuragiga qil sig'maydi.

Frazeologizm leksik jihatdan so'zlarning bo'linmaydigan birikmasi. Frazeologizmlar o'ziga xos morfologik va sintaktik tuzilishga ega. Frazeologizmlar tarkibidagi so'zlar grammatik va semantik jihatdan bir-biri bilan uzviy bog'liq, bir butun ma'no anglatadi. Ularning tarkibiy qismidan biror komponentni chiqarib tashlash mumkin emas. Frazeologizmlar ko'zchma ma'nolarda, obrazli ifodalarda qo'llanadi. Ular tarixiy qo'llanish me'yorlariga, usullariga ega bo'lib, ma'nolari muayyan nutqiy jarayonda oydinlashadi. Frazeologizm to'liq yoki qisman ko'chma ma'noga ega bo'lgan turg'un so'z birikmasidir. Frazeologizmlar yoki idiomalar til lug'atining eng rango-rang va ifodali qismi hisoblanadi. Frazeologizmlar so'z birikmasi shaklini yo'qotmagan holda bitta so'z bitta leksema bo'lishga intilayotgan leksikolizatsiyalashgan so'z birikmasidir. Frazeologizmlar birdan ortiq so'zdan tashkil topishi bilan so'z birikmasi yoki gap tipida bo'lsada, ammo u nutq birligi bo'lgan bu birliklardan tamoman farqlanadi va lug'aviy birlik sifatida ko'p jihatdan so'zlarga yaqin turadi, so'zlarga xos bo'lgan juda ko'p xususiyatlar frazeologizmlarga xos. Frazeologizmlar ham xuddi so'zlar kabi shakl va ma'no

¹ Mamatov A. E. O'zbek tilida frazeologizmlarning shakllanishi masalalari. – T.: O'TA. 2001. 3-son.-B.56.

birligiga ega. Soʻzning shakily tomonini tovushlar hosil qilsa, frazeologizmlar shakily tomonini soʻzlar hosil etadi. Frazeologizmlar va soʻzlar sintaktik vazifasiga koʻra umumiylikka ega. Frazeologizmlar lugʻaviy birlik boʻlganidan, xuddi soʻzlar kabi gapda bir boʻlak vazifasida keladi.

Masalan: But you know it's *Hobson's choice*. Hozir Hayotning *koʻngliga qil sigʻmaydi*.¹

Bu har ikkala gapdagi frazeologizmlar kesim vazifasida qoʻllangan. Frazeologizmlarga ham, soʻzlarga oʻxshab, koʻp maʼnolilik va omonimlik xos. Frazeologizmlar va soʻzlar oʻrtasidagi oʻxshashlik *izomorfizm* hodisasidir. Shuni ham taʼkidlab oʻtish kerakki, frazeologizm va soʻzlar oʻrtasidagi farqlar ham anchagina. Tilshunos olim A.V.Kunin bu ikki til birligi oʻrtasidagi quyidagi farqlarni sanab oʻtadi:

1. Soʻzlar va frazeologizmlar ham semantik, ham strukturaviy jihatdan farqlanadi.
2. Frazeologizmlar frazeologik maʼnoga ega boʻlgan soʻz birikmasidir. Frazeologizmlar soʻz birligi va gaplarning grammatik qolipi asosida yasaladi, soʻzlar soʻzlardan emas, balki morfema yoki negizdan tashkil topadi. Soʻzlar leksik maʼnoga ega va soʻzlarga leksik turgʻunlik xos. Soʻzlar, baʼzi qoʻshma soʻzlardan tashqari, soʻz birikmalarining grammatik qolipi asosida yasalmaydi. Soʻzlar frazeologizmlarga xos boʻlmagan prefiksal va affiksal sozʻ yasovchi qoliplar asosida yasaladi.
3. Frazeologizmlar frazeologik birliklar, soʻzlar esa leksik birliklardir. Frazeologizmlar soʻz birikmasi yoki gaplar kabi nutq jarayonida hosil boʻlmaydi,

¹ Mamatov A. Almamatova Sh. "Farzeologik transpozitsiya va uni oʻrganish haqida. Uslubshunoslik va frazeologizmning dolzarb mummolari. Ilmiy-nazariy konfirentsiya materiallari". – Samarqand.: 2007. –B.68-70.

balki ular xuddi soʻzlar kabi tilda tayyor holda mavjud boʻladi. Demak, frazeologizmlar nutq hodisasi emas, balki til hodisasi.

To kick the bucket, red tape yoki aravani quruq olib qochmoq, nogʻorasiga oʻynamoq kabilar tildagi tayyor lugʻaviy birliklardir. Baʼzi frazeologizmlar tuzilishi jihatdan gap shaklida ham boʻladi va ular nutqda gapning bir boʻlagi vazifasida keladi.

Masalan: *Quling oʻrgilsin, mehmonlarda uchrashib qolguncha salomat boʻling.* (O. E) Erkin soʻz birikmasi va frazeologizmlar oʻrtasidagi farqlarga toʻxtaladigan boʻlsak, shuni aytib oʻtish kerakki, erkin soʻz birikmasi tarkibiy qismlaridan birining yoki bir nechtasining oʻzgarishiga yoʻl qoʻyadi. Ammo bunda boshqa elementlarning maʼnolari oʻzgarmaydi. Soʻz birikmasidagi soʻzlar koʻproq semantik mustaqillikka ega. Har qanday komponent boshqasining maʼnosiga taʼsir etmasdan almashinishi mumkin: *to cut bread, to cut cheese, to eat bread.* Frazeologizmlarda esa bunday holat sodir boʻlmaydi. Masalan, *red flower* birikmasini olsak, undagi *red* sifatini *yellow, white* sifatlariga almashtirish mumkin. Ammo bu almashinish soʻz birikmasida nazarda tutilgan predmetga tegishlilik maʼnosini oʻzgartirmaydi (biron bir rangdagi gul) Frazeologizm boʻlgan *“red tape”*da esa *red* sifatining oʻzgartirilishi frazeologizmlar maʼnosining butunlay oʻzgarishiga olib keladi. *A blue (black, white) tape – koʻk (qora, oq) tasma* maʼnosini bildiradi. Frazeologizmlar va erkin soʻz bogʻlanmalari oʻrtasidagi farq juda katta. Shuni aytish mumkinki, frazeologizm leksik birlik hisoblanuvchisoʻz birikmasidan tamomila farqlanuvchi alohida til birligidir.

Frazeologik iboralar va ularning semantik-grammatik tuzilishi.

Frazeologizmlar frazeologik maʼno va qoʻshimcha ottenkalardan iborat boʻladi. Belgi, harakat kabilar haqidagi frazeologizm ifodalaydigan maʼlumot frazeologik maʼno deyiladi. Masalan: *Endi toʻrtinchu rotani ham ratsiya bilan taʼmin qilsak, oshiq olchi boʻlardir. Bu yerda ekanizni eshitib, hech narsa koʻzimga koʻrinmadi, uchib bora qolsam dedimi.*(O) Birinchi misoldagi frazeologizm belgini,

ikkinchisidagi esa harakatni bildiradi. Frazelogizmlar soʻzlar kabi yaxlit bir maʼno ifodalasada, ammo frazeologik maʼno koʻp jihatdan leksik maʼnodan farqlanadi. Shu sababdan frazeologizmlar soʻzlarga misol boʻlgan hollarda ham frazeologik maʼno bir-biriga teng boʻlmaydi. Frazelogik maʼnoning hajmi leksik maʼnoning hajmiga nisbattan keng, murakkab boʻladi. Masalan: a hard nut to crack – a very difficult problem.¹ Boshida *yongʻoq chaqmoq – oʻta darajada azoblanmoq*. Koʻrinib turibdiki, bu frazeologizmlar maʼnosida “very” “oʻta darajada” komponenti bor. Frazelogik maʼno yaxlit maʼno boʻladi, frazeologizmlar tarkibidagi soʻzlar mustaqil maʼnoga ega boʻlmaydi. Shuning uchun ayrim frazeologizmlarning komponentlari oʻzgarsa ham frazeologik maʼno saqlanadi: to stand to one’s guns – to stick one’s guns; bir pul – ikki pul – uch pul. Keltirilgan dalillar frazeologizmlar garchi yaxlit maʼno ifodalasada, lekin frazeologik maʼno bilan leksik maʼno tabiati bir xil emasligini koʻrsatadi. Frazelogizmlar semantik jihatdan soʻzlardan farqli belgi-xususiyatlarga ega boʻlganligi uchun ham tilda paydo boʻlgan va yashab kelmoqda.

Iboralarning grammatik tabiati va ichki sintaktik qurilishi. Frazelogik birikmalarning ifoda plani sifatida kamida ikkita mustaqil soʻz qatnashadi. Oʻzaro bogʻlangan bu soʻzlar mohiyatiga koʻra birikmaga yoki gapga teng boʻladi. Bunday birikma yoki gapdan yaxlitligicha anglashiladigan frazeologik maʼno uni sintaktik birlik deb emas, balki semantik birlik deb qarashga olib keladi. Shu sababli birikmaga yoki gapga tenglik haqida gapirganda iboraning ichki sintaktik qurilishi koʻzda tutiladi; ibora tarkibini sintaktik tahlil qilish nutq birligining tarkibini emas, balki til birligining tarkibini tahlil qilish boʻladi.

Umuman, ibora tarkibida qatnashgan soʻzlar orasidagi sintaktik bogʻlanish oʻz kuchini saqlaydi va faqat ichki boʻladi. Masalan, ***koʻngli ogʻridi*** iborasi ichki semantik qurilish jihatdan gapga teng, ayni shu birikmaning ***koʻnglini ogʻritmoq*** variant esa birikmaga teng. Bunday sintaktik qayta qurilish bu feʼl iborada nisbat

¹ Bafojeva M. “Badiiy nutqda frazeologik sinonimlardan foydalanish” – T.: OʻTA.2003.2-son.-B.90.

yasalishi munosabati bilan yuz beradi; o'timsiz fe'l bosh kelishikdagi ot bilan munosabatga kirgan bo'lsa, ortirma nisbat yasovchisini olib o'timli fe'lga aylangach, ot komponentining bosh kelishigi tushum kelishigiga almashadi. Ko'rinib turibdiki, bir komponentdagi grammatik o'zgarish ikkinchi komponentga ham shunga muqobil o'zgarishni talab qiladi, natijada gapga teng holat birikmaga teng holatga o'tadi. Bunday ikki xil sintaktik qurilish shaklida bo'la oluvchi iboralar anchagina:

ko'zi ko'r, qulog'i kar bo'ldi – ko'zini ko'r, qulog'ini kar qilmoq; ko'zini moshdek ochmoq – ko'zi moshdek ochildi kabi. Ortirma nisbat yasalishi doim sintaktik qurilishni o'zgartirib yubormaydi.

Masalan, **ko'z oldiga kelmoq – ko'z oldiga keltirmoq** iborasida nisbat yasalishi sintaktik qurilishni – birikmaga teng holatni o'zgartirmaydi, bu yasalish tufayli ikkinchi variant o'timlilik kashf etadi. Bunday grammatik o'zgarishlar iboraning faqat ifoda planida ro'y berib, uning mazmun planiga ta'sir qilmaydi. Gapga tenglikdan birikmaga tenglikka va aksincha aylanish iboralarning ma'lum bir qismigagina xos bo'lib, qolgan iboralar doimo bir sintaktik qurilish shaklida namoyon bo'ladi.

Masalan: *ko'ziga cho'p solmoq, ko'zini bo'yamoq, ko'z o'ngida* kabi iboralar doim birikmaga teng qurilishli shaklda; *ko'zi yetdi, ko'zi ilindi, ko'zi ko'r – qulog'i kar* kabi iboralar doim gapga teng qurilishli shaklda ishlatiladi. Misollardan ko'rinadiki, ichki sintaktik qurilishli birikmaga teng iboralar ham, gapga teng iboralar ham yig'iq va yoyiq bo'ladi, odatdagi sintaktik bog'lanishlarda qanday bo'laklar qatnashsa, iboralar tarkibida ham xuddi shunday bo'laklar qatnashadi. Yirik frazeolog olim A.V. Kuninning fikricha, frazeologizmlar nominativ, stilistik, kommunikativ, pragmatik va xulosolovchi, yakunlovchi vazifalarni bajaradi.¹

¹ Кунин А.В. Курс современного английского языка.-М.:1986.-С.146.

Frazeologizmlarning nominativ funksiyasi. Professor Sh.Raxmatullayev iboralarni ma'no turlari jihatdan a) nomlovchi iboralar b) ifodolovchi iboralarga ajratib tasnif qiladi: Shulardan;

- nomlovchi iboralar deyilganda olim predmetga xos belgining nomi (*do'ppining tagidek*),
- harakat holatning nomi (*og'iz ko'pirtirmoq*),
- harakatga xos bo'lgan belgining nomi (*eshikdan kelmay teshikdan*)ni bildiruvchi iboralarni tushunadi.

Bunday tasnif esa iboralarning ma'lum qismi matnlarda nominativ funksiya bajarishi mumkinligidan dalolat beradi.

Masalan: *belni bog'lamoq* iborasi oddiy harakakatga shaylanmoq, o'tlanmoq ma'nosini ifodalashga xizmat qiladi: Biz chunon xizmatga belni bog'ladik, bormi himmat o'lchagich tarozilar.

Belni bog'lang-u jahonni to'ldiring qog'oz bilan.

Nutqni ixchamlash funksiyasi. Iboralarning ayrimlari ma'noni ixchamlashtirish (lakonizatsiyalash) xususiyati bilan ajralib turadi. Bunday holatni taniqli o'zbek shoiri Erkin Vohidov she'riyatida qo'llangan iboralarga doir olib borilgan kuzatishlar ham to'la tasdiqlaydi. Masalan, adabiy tilda "*ko'p gapirmoq*", "*vaysaqalik qilmoq*" ma'nolarini ixcham tarzda "gap sotishga usta bo'lmoq" iborasi bilan ifodalanadi. "tosh otishga usta bo'lmoq" iborasi "*yomonlik, dushmanlik hatti-harakatlarini qilmoq*" ma'nosini anglatadi.

Obrazli ifodalash funksiyasi. Badiiy nutqda, ayniqsa, she'riyatda qo'shma iboralar konkret, ko'rgazmali tasvir uchun xizmat qiladi, shaxs, predmet, voqea-hodisaning obrazli ifodasi bo'lib keladi. Masalan, "*tishini tishiga qo'ymoq*" iborasi "Istanbul fojiasi" she'riy dramasidan olingan quyidagi parchada "*toqat bilan chidamoq*", "*chidash bermoq*" ma'nolarini obrazli tarzda ifodalashga xizmat qiladi:

Tasavvur qil qanday holga tushar xaloyiq

Tishni tishga qo'ydim.

Yig'in tamom bo'ldiyu, biz shiyponga borib yetdik.

Umuman, baho funksiyali iboralar badiiy matnlarda, jumladan Erkin Vohidov shariyatida xarakterlovchi vositalardan biri sanaladi. Ular yordamida turli voqea-hodisalarga, predmetlarga bo'lgan lirik qahramon munosabati ifodalanadi, voqeband she'rlarda, dostonlarda esa bir personaj ikkinchisini xarakterlaydi:

*Biz ayollarning **to'lqinida oqib,***

U kunlar haqida to'qiyimiz doston,

Ammo o'lganlarga she'r, dostondan ne naf

*Ne foyda yig'lashdan **qalb dardin aytib.***

Emotsional funksiya. O'zbek tilidagi ko'pgina iboralarning ekspressiv-emotsional bo'yoqdorligi ajralmas xususiyati sanaladi. Masalan, tilimizdagi "arpasini xom o'rmoq" iborasi "nima yomonlik qildi" ma'nosini ifodalaydi. Bu iboraning kuchli ohang bilan talaffuz qilinishiyoq undagi emotsionallikning kuchliligidan dalolat beradi.

Ekspressiv funksiya. Umuman ibora tarkibidagi fonetik, leksik va ayrim grammatik o'zgarishlar undagi ekpressivlik darajasining kuchayishiga olib keladi:

- a) ibora tarkibidagi fonetik o'zgarish tufayli ekpressivlik darajasining kuchayishi: *tepa sochi tikka bo'ldi – tepa sochi tip-tikka bo'ldi, ko'ngli qora – ko'ngli qop-qora, ko'ngli toza – ko'ngli top-toza.*
- b) grammatik o'zgarish tufayli: *nafasi ichiga tushib ketdi – nafaslari ichiga tushib ketdi, ko'zi qiymaydi – ko'zlari qiymaydi.*

- c) leksik o'zgarish tufayli: *narvonga minmoq – ilm narvoniga minmoq, etagini tutmoq – ilhom etagini tutmoq, jilovini tutmoq – ish jilovini tutmoq.*

Frazeologizmlar tarkibidagi so'zlar boshqa oddiy birikmadagi so'zlarga shaklan o'xshab qolishi mumkin:

*Qodirqul mingboshining bunaqangi ishlarga **suyagi yo'q.** – Bu go'shtning **suyagi yo'q.***

*Mirzakarimboyning **qo'li uzun,** bu ishlarni uddalaydi. – Basketbolchining **qo'li uzun** edi.*

Bunday hollarda frazeologik ma'no kontekstga qarab aniqlanadi. O'zbek frazeologizmlarining grammatik tabiati haqida so'z borganda, ularning ichki sintaktik qurilishi, paradigmatic shakllari, iboralarning sintaktik qurshovi va ularda variantlanish hodisalarini tahlil qilish kerak bo'ladi. Frazeologik iboralarga grammatik nuqtai nazardan qaraganda, bunday iboralarning bir xil so'zga teng kelib, nisbiy tugal fikrni bildiradi. Mana shu xususiyatlarga qarab, frazeologik iboralarni grammatik tomondan dastlab uchga bo'lish mumkin:

1. So'zga teng kelgan frazeologik iboralar: *qo'li ochiq* (saxiy), *qo'li qattiq* (xasis), *qattiq qo'l* (talabchan), *ko'zi yo'lingda* (intizor), *ko'zi tushdi* (ko'rdi), *ko'z qorachig'i* (farzandi) kabilar.
2. So'z birikmasiga teng kelgan frazeologik iboralar: *ko'nglidagini ochib tashladi* (sirini aytdi), *o'zlarining aka eskilarini taka deb yurdi* (yalanib-yolvorib yurdi), *ko'zini shira bosgan* (muvaffaqiyatlardan esankiragan).
3. Gapga teng kelgan frazeologik iboralar: *kengashli to'y tarqamas* (har bir ish maslahat bilan bo'lsa yaxshi), *oyni etak bilan yopib bo'lmas* (ayb-nuqsonlarni yashirib bo'lmaydi), *qolgan ishga qor yog'ar* (har bir ish o'z vaqtida bo'lishi durust).

So'zga teng kelgan frazeologik iboralarga morfologik jihatdan qaraganda, bunday iboralardan kelib chiqadigan ko'chma ma'no fe'l, sifat, ot va ravish so'z turkumlariga teng kelishi mumkin. Shunga ko'ra so'zga teng morfologik iboralarni morfologik tomondan asosan 4 ga bo'lish mumkin.

1. Fe'l frazeologik iboralar: *ko'zi yetdi* (biladi, tushunadi), *ichi kuydi* (qayg'urdi), *ko'ngil qo'ydi* (sevdi).
2. Sifat frazeologik iboralar: *terisi qalin* (be'am, beparvo), *oq ko'ngil* (vijdonli), *dunyoni suv bossa to'pig'iga chiqmaydi* (beparvo, beg'am).
3. Ot frazeologik iboralar: *ko'z qorachig'i* (farzand), *umr bahori* (yoshlik), *aql chirog'i* (ilm), *ko'z bo'yamachilik* (aldash).
4. Ravish frazeologik iboralar: *bir yoqadan bosh chiqarib* (do'stona, birgalikda), *yeng shimarib* (astoyidil), *bosh ko'tarmay* (tinmay).

Frazeologik iboralar har qanday bo'lak bo'lib keladi:

- a) ega vazifasida kelgan frazeologik ibora;
- b) kesim vazifasida kelgan frazeologik ibora;
- c) aniqlovchi vazifasida kelgan frazeologik ibora;
- d) to'ldiruvchi vazifasida kelgan frazeologik ibora;
- e) hol vazifasida kelgan frazeologik ibora.

Frazeologik iboralar tuzilishi jihatdan so'z birikmasi, sodda va qo'shma gap shakllarida keladi:

1. So'z birikmasi shaklidagi frazeologik ibora.
2. Sodda gap shaklidagi frazeologik ibora.
3. Qo'shma gap shaklidagi frazeologik ibora.

Ingliz tilida grammatik jihatdan tasniflangan iboralar.

Go the wrong end of the stick (misunderstand) – verb+object

Pulla fast one (trick, deceive smb) – verb+object

Poke your nose into (interfere) – verb+object

Be over the moon (extremely happy) – verb+prepositional phrase

Feel down in the dumps (depressed) – verb+prepositional phrase

Be in the red (have a negative bank balance) – verb+prepositional phrase

Frazeologik iboralarning ifoda plani sifatida kamida ikkita mustaqil soʻz qatnashadi. Oʻzaro sintaktik bogʻlangan bu soʻzlar mohiyatga koʻra birikmaga yoki gapga teng boʻladi.¹

Frazeologizm tarkibida qatnashgan soʻzlar orasidagi sintaktik bogʻlanish oʻz kuchini saqlaydi, faqat ichki boʻladi. Iboralarning paradigmatic shakllari (turlanishlari, tuslanishlari kabilar) dastavval ularning qaysi turkumga mansub ekanligi bilan belgilanadi. Iboralarning asosiy qismini feʼl frazeologik birliklar tashkil etadi. Oʻzbek tilidagi iboralarning leksik va grammatik shakllari mavjud. Leksik variantlar quyidagi turlarga boʻlinadi:

- a) leksik almashtirish: ogʻziga talqin solmoq – ogʻziga soʻk solmoq;
- b) leksik tanlash: daryodan bir tomchi – daryodan tomchi;
- c) leksik qoʻshish: esini tanimoq – es-hushini tanimoq.

Bu variantlar orasida leksik almashtirish murakkab hisoblanadi. Leksik soʻz qoʻshish esa eng kam uchraydi. Grammatik variantlanish ham xuddi leksik

¹ Pinxasov Y. “Oʻzbek tili frazeologiyasi haqida”.T.; 1957. –B.54.

varianlanish bo'lganidek asosan ibora tarkibidagi biror grammatik qismni almashtirish, tanlash yoki unga qo'shish voqe bo'ladi. Grammatik variantlanishda o'ziga xos hodisa – so'z komponentlarning joylashish tartibi asosida yuzaga keldigan variantlanish ham bor:

1. Almashtirish asosida paydo bo'ladigan variantlanish: o'tirgani joy topolmasli – o'tirishga joy topolmaslik.

2. Qo'shish asosida paydo bo'ladigan varianlanish: holdan toymoq – holdan toydirmoq.

3. Tashlash asosida paydo bo'ladigan variantlanish: ko'zi ilindi – ko'z ilindi.

4. Tartib o'zgartirish asosida paydo bo'ladigan variantlashish: bog'dan kelsa – bog'dan kelmoq.

Frazeologik qo'shilma va uning turlari. Frazeologik qo'shilma ko'pincha ikki so'zdan ba'zan undan ortiq so'zdan ham tarkib topadi. Frazeologik qo'shilma tarkibidagi bir yoki ikki so'z ko'chma ma'noda qo'llanadi, boshqasi o'z leksik ma'nosini saqlagan bo'ladi. Ko'chma ma'noni ifoda etgan element yolg'iz o'zi kelganda ko'chma ma'nolik xususiyatini yo'qotib, o'z asl ma'nosini bildiradi. Shuning uchun ham frazeologik qo'shilma tarkibidagi bir elementning ko'chma ma'no ifoda etishi uchun ikkinchi elementi o'sha ma'nosida kelgan so'z bo'lishi shart. Bundan ma'lum bo'ladiki, frazeologik qo'shilmadagi bir elementdan anglashiladigan ko'chma ma'no butun bog'lanmadagi so'zlarda bog'langan ma'nodan yuzaga keladi. Shunday qilib tarkibidagi so'zlardan biri yoki ikkitasidan ko'chma ma'noga asoslangan va bog'lanmadagi barcha so'zlardagi xos mustaqil ma'no markazlarini saqlab qolgan iboralar frazeologik qo'shilma deb aytiladi. Frazeologik qo'shilma tarkibidagi erkin element bu iboraning erkin so'zlar bog'lanmasi va sintaktik bog'lanmalarga o'xshashlik tomonini ko'rsatadi, ammo

frazeologik qo'shilmalarni sintaktik bog'lanmadan farqlay bilish kerak.¹ Bu farqni quyidagi misollar bilan ko'rish mumkin:

Achchiq choydan bo'lsin.

Bunday achchiq gaplardan endi biz ham benasib qolmadik.

Birinchi misoldagi *achchiq choy* iborasi sintaktik ibora bo'lib, har bir so'z leksik ma'nosida qo'llanmoqda, ikkinchi misoldagi *achchiq gap* iborasi frazeologik qo'shilma hisoblanadi, chunki bunda *gap* so'zi o'z ma'nosida, *achchiq* so'zi esa ko'chma ma'noda (koyituvchi, ranjituvchi ma'nolarida) ishlatilgan.

Frazeologizmlarni milliy tadqiq qilshda tilshunoslikda keng tarqalgan ***distributiv metoddan*** foydalanish mumkin. Frazeologizmlarning nutqda ishlatilish xususiyatlarining distributiv metod yordamida o'rganish orqali ularning struktural-semantik belgilari chuqurroq aniqlanadi. Undan tashqari, frazeologizmlarni o'rganishda ularning semantik-struktural belgilarini tilning mamun rejasi bilan uning ifoda rejasini munosabati borasida qaramoq zarur. Frazeologizmlarning tarkibini tekshirishda uning komponentlari o'rtasidagi birikish turlarini birikuvchi so'zlarning tabiatini ***valentlik metodi*** asosida qaramoq zarur. Frazeologizmlarning strukturasi va ma'nolari bir-biriga qarama-qarshi qo'yish (opozitsiya) aniqliklarga olib keladi. Frazeologizmlarning grammatik tomonlarini ham hisobga olish zarur. Chunki frazeologizmlarning komponentlari o'rtasidagi sintaktik aloqalar, ularga qo'shiluvchi affikslar muhim rol o'ynaydi. Frazeologizmlarning xususiyati shundaki, ularning ma'nolarini so'zma-so'z, aynan tushunish mumkin emas, balki uning "ostida yotgan" ma'nosini anglash zarur. Masalan, "*bu odamning ko'ngliga qo'limni solib ko'rsam, niyati buzuq ekan*", jumlasidagi ko'ngliga qo'limni solib

¹ Haydarov A., Jo'raqulova G. Frazeologik iboralar tarjimasida. Tilning leksik-semantik va qiyosiy tipologik izlanishlar: sinxroniya, dioxroniya materiallar to'plami. – T.: Muharrir. 2012. –B.10-13.

ko'rsam so'zlari aynan tushunilsa, hech qanday ma'no chiqmaydi, bu yerda uning nima niyatda ekanini surishtirib ko'rsam degan ma'no bor. Frazeologizmlarning bir-birlari o'rnini ishlatila olish xususiyati substansiya metodi yordamida, ularning turg'un va almashtiruvchi komponentlari o'rtasidagi bog'lanishlar transformatsiya metodi yordamida chuqurroq ochiladi. Frazeologizimlarning struktural-sintaktik metodida har bir so'z ham mustaqil ma'noga ega bo'lmaydi. Frazeologizimlarning komponentlari ikki va undan ortiq bo'lishi mumkin. Ko'p komponentli frazeologizmlar ko'proq maqollarda uchraydi.¹

Xulosa qilib aytganda, frazeologik birliklar tilda alohida sistemani tashkil etadi. Ular semantik-grammatik jihatdan shakllangan iboralardir. Ular o'ziga xos morfologik va sintaktik tuzilishga ega. Frazeologizmlar tarkibidagi so'zlar grammatik va semantik jihatdan bir-biri bilan uzviy bog'liq holda bir butun ma'no anglatadi. Frazeologizmlar ko'chma ma'noda, obrazli ifodalarda qo'llaniladi. Ularning tarixiy qo'llanish me'yorlari, usullari muayyan nutq jarayonida oydinlashadi, chunki ular to'liq yoki qisman ko'chma ma'noga ega bo'lgan turg'un so'z birikmalaridir.

2-bo'lim: Frazeologik birliklarning semantik tabiati.

Tilshunoslikning frazeologiya sohasiga buyuk hissa qo'shgan V.V.Vinogradovning rus frazeologizmlari kalassifikatsiyasi kabi ingliz frazeologizmlari klassifikatsiyasini ham joriy etgan. "Olimning frazeologizmlar tasnifi usuli ba'zi hozirgi zamon tilshunoslari fikricha eskirgan usul hisoblanadi. Lekin bu usul semantic printsipga asoslangan birinchi tasnif usuli bo'lgani holda hali ham o'z qiymatini yo'qotmagan. Shuni ta'kidlash kerakki frazeologizmlarning

¹ Mamatov A. E. O'zbek tilida frazeologizmlarning shakllanishi masalalari. – T.: O'TA. 2001. 3-son.-B.76.

semantik xususiyatlari muhim ahamiyatga ega”, deydi G.B.Antrushina.¹ V.V.Vinogradovning bu tasnif usuli frazeologizmlar tarkibiy qismlarining o'zaro sintaktik birikishiga asoslangan. Uning fikricha, qisman ko'chma ma'noga ega bo'lgan frazeologizmlar komponentlari o'rtasidagi eng zaif birikuv kuzatiladi. Frazeologizmlar ma'nosi uning tarkibiy qismlarining ma'nosidan qanchalik ko'p farq qilsa, semantik birikuv darajasi shunchalik yuqori bo'ladi.

Frazeologik chatishmalar – komponentlarining ma'nolari butun birlikning ma'nosiga aloqador bo'lmagan frazeologizmlardir. Masalan, *heavy father – teatr pyessasidagi asosiy rol*, *to kick the bucket – o'lmoq*, *red tape – byurokratik metodlar* manosi o'z tarkibidagi so'zlarning ma'nolariga bog'liq bo'lmagan yaxlit holda bir ma'no beruvchi frazeologizmlardir. Frazeologik chatishmalar ma'nosi butunlay o'zgargan so'zlar birikmasidir. Ammo frazeologik qo'shilmalardan farqli o'laroq, ularning ma'nolari tarkibiy qismlarining ma'nolaridan anglashilmaydi, metaforaga asoslangan ma'no ko'chish o'z aniqligini yo'qotadi. *To leave smb in lunch (to abandon a friend when he is in trouble)*, *to show the white feather (to betray one's cowardice)*, *to dance attendance on smb (to try and attract smb, to show exaggerated attention)* kabi frazeologizmlar ham frazeologik chatishmalarga misol bo'la oladi.

Frazeologik qo'shilmalar – ma'nosi bir butun frazeologizmlarning frazeologik ma'nosidan anglashiladigan frazeologizmlardir. Metaforaga asoslangan ma'no ko'chish aniq va oydindir. Frazeologik qo'shilmalarning leksik komponentlari eng turg'un hisoblanadi.

Masalan:

¹ Antrushina G.V. English Lexicology. – M. 1985.

- ***to look a gift horse in the mouth*** (*to examine a present too critically, to find fault with smth one gained without effort*),
- ***to ride a high horse*** (*to behave a superior, haughty, overbearing way*),
- ***a big bug*** (*a person to importance*),
- ***a fish out of water*** (*a person situated uncomfortably outside his usual and proper environment*)¹kabi frazeologizmlar frazeologik qo'shilmalarga misol bo'la oladi. Frazeologik qo'shilmalar hajmi anchagina. Ularning ba'zilari osongina tarjima qilinadi va hattoki ba'zilari internatsional hamdir.
- Masalan, ***to know the way the wind blows*** – *qayerga shamol esishini bilmoq*.

Frazeologik birlashmalar – o'ziga xos valentlikka ega bo'lgan so'zlardan tashkil topgan. Bunday frazeologik birliklarning komponentlaridan biri o'zining to'g'ri ma'nosida, qolganlari metaforik ma'noda qo'llaniladi. Frazeologik birlashmalar ma'lum darajada semantic jihatdan bo'linmasdir. Frazeologik birlashmalar ma'nosi qisman o'zgargan so'zlar birikmasidir. Bu frazeologik birliklar ma'nosi ularni tashkil etuvchi so'zlarning ma'nosidan osongina anglashiladi.

To be at one's wits end, to be a goodhand at smth, to come off a poor second, to come to a sticky end, to stick at nothing, gospel truth, bosom friend kabilar frazeologik birlashmalarga misol bo'ladi.

Shuni ta'kidlab o'tish lozimki, A.I.Smirnitskiy, Z.N.Anomosova, A.V.Kumacheva, T.N.Derbulova, N.N.Amosova, N.M.Shanskiy kabi qator tilshunoslar tomonidan ilgari surilgan. Frazeologizmlar klassifikatsiyalari ham o'ziga xos ahamiyatga ega. N.N.Amosova tomonidan taklif etilgan frazeologizmlarning klassifikatsiyasiga to'xtalib o'tamiz. Komponentlardan biri

¹ Ne'matov H., Rasulov R. "O'zbet tili sistem leksikologiyasi". – T.: 1995.-B.34.

yoki butun bir birikmaning maxsus ma'noga egaligi yoki ega emasligiga ko'ra frazeologik birliklar *frazemalar* va *idiomalarga* bo'linadi.¹ **Frazemalar** odatda ikki so'zdan tashkil topadi va shu komponentlardan biri ikkinchisiga bog'liq bo'lgan holda maxsus ma'noga ega bo'ladi. Masalan, *small horse* da ikki komponent bo'lib, birinchi komponentning (*horse*) kontekstdan almashinadigan o'ziga xos ma'nosini tushunishda kalit vazifasini o'taydi. Buni quyidagi misollarda kuzatish mumkin: *small talk, to knit one's brows, husband's tea*.

Frazeologizmlarning semantik xususiyatlarini o'rganish orqali ularda frazeologik polesemiya, frazeologik sinonimiya, frazeologik antonimiya va paronimiya hodisalari borligi aniqlangan. Frazeologizmlarning paradigmatic va sintagmatik xususiyatlari ularda grammatik, morfologik, sintaktik va leksik-semantik vositalar qo'llanilishini ko'rsatadi. Frazeologizmlarning variantlanishi ularning komponentlari almashinishi, qo'llanilishi, tushurib qoldirilishi transformatsiya qilishga bog'liq. Grammatik-morfologik strukturasi ko'ra fe'llik, ravishlik, undovlik va hokazo frazeologizmlar farqlanadi. Frazeologizmlar tarkibiga kirgan so'z turkumlari ba'zan o'zlarining mustaqil ma'nolarini yo'qotadi. Masalan, *cho'ntagini qoqmoq – oxirgi tiyinigacha olib qo'ymoq, quloq bermoq – quloq solmoq, havoga uchmoq – e'tibor bermaslik sichqonning ini ming tanga bo'lmoq* ma'nosida kabi.

Frazeologizmlar ayniqsa leksik-semantik jihatdan sinonimlarga juda boy. Birgina *asabi buzilmoq, xafa bo'lmoq* ma'nosida ishlatiluvchi ***to be in a bad mood*** iborasi ingliz tilida 9 sinonimga ega: *to be down in the mouth, to be in a bad temper, to be in a bad humor, to be in a low spirit, to be in a dumps, to be out of humor, to be out sorts, to be out of spirit, to be out of spirits*. Frazeologizmlar ma'no

¹ Амосова Н. Н. "Основы английской фразеологии". – М.:1963.-С.54.

va qo'shimcha ottenkalardan iborat bo'ladi. Belgi, harakat haqida frazeologizm ifodalaydigan ma'lumot frazeologik ma'no deyiladi. Masalan: *Qizim boshimni osmonga yetkazdi.*

Frazeologik ma'no obrazli va jozibali bo'ladi. Shu xususiyat bilan leksik ma'noli so'zlardan biroz ajralib turadi: *xufiya – yeng ichida, beqiyos – yer bilan osmoncha, xursand – og'zi qulog'ida.* Ayrim frazeologizmlar bildirilgan ma'nolarni bir so'z bilan ifodalab qo'ymaydi. Masalan:

Qildan qiyiq topib janjal chiqaradi.

Qosh qo'yaman deb ko'z chiqarib qo'ydi.¹

Frazeologik ma'no ibora tarkibidagi so'zlardan birining ko'chma ma'no berishi (*shirin so'z, achchiq gap, ishning ko'zi, gapning tuzi*) mumkin yoki tarkibidagi komponentlarning umumiy ma'nolariga asoslanib ma'no ifodalashi mumkin. Masalan, *og'zi qulog'ida, bel bog'lamoq, og'iz ochmoq, temirni qizig'ida bosmoq.* Yoki tarkibidagi komponentlarining ma'nolariga aloqasi bo'lmay ko'chma ma'no aglatish mumkin. Masalan, *boshi osmonga yetdi, tepa sochi tik bo'ldi, yulduzni benarmon uradi, yuragiga qil sig'maydi.*

Tilshunos A.Mamatov o'zbek tili frazeologizmlarining shakllanishi doirasida 4 ta tasnifini ajratib ko'rsatadi.²

1. Shaxs faoliyati va psixikasi bilan bog'ligi jihatdan;
2. Kasb-korga bog'liqligi;

¹ Pinxasov Y. O'zbek tili frazeologiyasi haqida. T; 1957.-B.29.

² Mamatov A. E. "O'zbek tilida frazeologizmlarning shakllanishi masalalari". – T.: O'TA. 2001. 3-son.-B.76

3. Hayvonlarga xos obrazlar asosida;
4. Din va dindorlarga bog'liqligi jihatdan shakllangan frazeologizmlar.

Masalan, *og'iz ochmadi, o'pkasi to'lmadi, bo'zchining mokisidek, suprasi quruq, it-mushuk bo'ldi, dumi xo'rajinda, xudo ko'tarsin, payg'ambar hassasi bilan turgan* va hokzo. O'zbek xalq maqollarida ham semantik jihat mavjud. Maqollar semantik jihatdan ikki xil bo'ladi:

- o'z manosida bo'lgan maqollar;
- ko'chma ma'nodagi maqollar.

Frazeologik birlashmalarga asosan ko'chma ma'nodagi maqollar kiradi. O'z ma'nosidagi maqollar frazeologiya doirasiga kirmaydi. Masalan quyidagi ko'chma ma'nodagi maqollar frazeologik birlashma tarkibiga kiradi:

Bugungi ishni ertaga qo'yma.

Dushmanga omon berma.

Yovga bo'ysunmoqdan ko'ra o'lim afzal.

Iboralar ham ifoda planiga va mazmun planiga ega. Sodda morfemada uning plani deb tovush tizimi ko'rsatilsa, murakkab (qo'shma) morfemada uni tashkil toptirgan morfemalar ko'zda tutiladi (*chilik = chi+lik*).

Shuningdek, tub leksemada uning ifoda plani deb tovush tizimiga aytilsa, yasama leksemada uning tarkibidagi leksemalar va morfemalar ko'zda tutiladi: *talabchanlik = talab+chan+lik* kabi. Ko'rinadiki, tub til birliklarida (morfemalarda, leksemalarda) ifoda plani deb tilning material birliklari – tovush olinadi; tarkibli (murakkab, yasama) til birliklarida esa ular tarkibidagi til birliklari ko'zda tutiladi.

Ibora yirik til birligi bo'lib, kamida ikkita mustaqil so'zdan tarkib topadi. Shunga ko'ra iboraning ifoda plani deb so'zlar, ular tarkibidagi til birliklari ko'zda tutiladi. Ibora ham tarkibli til birligi, lekin uning ma'nosidagi leksemalarga xos ma'nolarning oddiy yig'indisiga teng bo'lmaydi. Iboraga xos ma'no tarkibidagi leksemalarning ma'nosiga nisbattan mahraj ma'no, ustama ma'no sifatida gavdalanadi va bu ma'no ibora tarkibidagi leksemalarga xos ma'nolarning oddiy yig'indisi bo'lmasligi, shular ustiga qurilgan yangi bir ma'no bo'lishi sababli iboralarda go'yo ifoda plani bilan mazmun plani orasida qandaydir uzilish sodir bo'ladi. Xususiy (qismlarga xos) ma'nolar umumiy (iboradan anglashiladigan) ma'noni tog'ridan-to'g'ri izohlab turmaydi, shu sababli iboralarda ifoda plani bilan mazmun plani orasidagi bog'lanish shartlilik kashf etadi. Bu yerda bittadan ortiq so'z yaxlitligicha ma'lum bir obraz asosida, ko'chirish yo'li bilan semantik taraqqiyotni boshdan kechiradi. Ma'lim bir obraz asosida yuzaga kelgan ana shunday ustama ko'chma ma'noga **frazeologik ko'chma ma'no** deyiladi. Masalan, *til tegizmoq iborasi – shaniga nomunosib, nohaq gap anglatmoq* ma'nosini anglatadi. Bu ma'no to'gridan-to'g'ri ibora tarkibidagi leksemalarning ma'nosidan kelib chiqmaydi. Masalan, “*Batareyaga til tegizsam, hech toki yo'q ekan*” gapida erkin birikma ishlatilgan erkin birikma ishlatilgan. Bunday ishlatishda til va tegizmoq so'zlari ma'no mustaqilligini saqlab bog'lanadi, manoda yaxlitlanish yuz bermaydi. “*Kechagi majlisda menga til tegizibdi*” gapi tarkibidagi yuqoridagi erkin birikma emas, balki ibora qatnashmoqda. Chunki bu gapda til va tegizmoq so'zlaridan emas, balki *til tegizmoq* iborasidan foydalanilgan. Endi til va tegizmoq so'zlariga xos bo'lgan ma'nolarning oddiy yig'indisi haqida emas, balki ustama ko'chma ma'no haqida gapirish lozim. Bunday ma'no obrazga suyanib yuzaga keladi: tegish harakatidan kelib chiqadigan bo'lsak, til deganda fiziologik organni tushunish kerak, ammo bu o'rinda til so'zining boshqa ma'nosi (nutq) qatnashadi, tegizmoq fe'lining ma'nosi shu nutq ma'nosini *gap, so'z* ma'nosi darajasiga konkretlashtirdi (tegizish harakati uzoq davom etmaydi). Ayni vaqtda biror so'z, gapni beg'araz aytish emas, “tegizib” aytish ko'zda tutiladi, shundan aytiladigan

soʻz-gapning “nomaqbul” boʻlishi kelib chiqadi va boshqalar. Yuqoridagicha obrazli tasavvurlar oqibatda sifatida ayrim-ayrim soʻzlarning maʼnosi ikkinchi planga oʻtib, birikmadan yaxlitligicha yangi bir maʼno anglashiladi. Ana shunday maʼno *frazeologik maʼno* deyiladi.

Xulosa qilib aytganda, frazeologik birliklarning semantik tabiati ularning tarkibiy qismlarining oʻzaro sintaktik birikishiga asoslangan. Frazeolog olimlar fikricha, qisman koʻchma maʼnoga ega boʻlgan frazeologizmlar komponentlari oʻrtasidagi eng zaif birikuv hisoblanadi, yaʼni frazeologik birliklar maʼnosi uning tarkibiy qismlarining maʼnosidan qanchalik koʻp farqlansa, semantik birikuv darajasi shunchalik yuqori boʻladi.

3-boʻlim: Frazeologik birliklarning leksik, semantik, grammatik va uslubiy oʻziga xosligi

Sinonimik iboralar va ularning uslubiy xususiyati koʻpgina tadqiqotchilarning eʼtiborini oʻziga tortgan masalalardan biridir. Sinonimiya terminini frazeologik birliklarga nisbattan birinchi A.V.Kunin tadbiiq etgan deyish mumkin. Bu muallifning maqolasida “struktural sinonimiya” tushunchasi va atamasi beriladi, muallif frazeologik birliklarning variantlarini shunday ataydi. Maqolada struktural sinonimiyaning turlari deb leksik sinonimiya, grammatik sinonimiya, leksik-grammatik tiplari koʻrsatiladi. Bunda variantlarning leksik-grammatik farqlanishi asosga olinadi. Na iboralar orasidagi, na soʻz bilan ibora orasidagi sinonimiya toʻgʻrisida muallif fikr yuritmaydi.¹

Frazeologik sinonimiya boʻyicha birinchi boʻlib Y.D.Apresyan kandidatlik dissertatsiyasini yoʻqlagan. Bu dissertatsiya deyarli toʻliq holda 1957-yilda bosilib

¹Kунин А.В. “Курс фразеологии современного английского языка”. – М.:1986.-В.31.

ham chiqdi. Frazologik sinonimiyaga bag'ishlangan birinchi ish sifatida Y.D.Apresyanning asari hozirgacha ham o'z qiymatini yo'qotmagan. Ko'pchilik adabiyotlarda esa bu hodisani individual nuqtai nazardan baholash maqsad qilib qo'yiladi. Keyingi ishlarda, so'zsiz frazeologik sinonimiyani umumtil hodisasi sifatida bayon etish ham ma'lum o'rin egallaydi. F.A.Krasnov frazeologik sinonimlarni ularga sinonim bo'ladigan so'z bilan qiyoslab baholaydi, shu asosda oddiy so'zlashuv nutqiga xos iboralarning ekspressiv-sinonimik ma'no anglatishini ta'kidlaydi. Bunday iboralarni badiiy asarda ishlatish asosan ularning ma'no ottentkari tufayli emas, balki ekspressiv-emotsional tomonlari tufayli yuz berishini qayd qiladi. Bizningcha iboralar ifodalaydigan emotsional-ekspressiv ma'nolarni bu qadar bo'rtirib ko'rsatish ularning lug'aviy ma'nolarini mensimaslikka olib keladi. So'zlar bilan iboralar orasidagi frazeologik sinonimiyaning bayoniga bag'ishlangan maxsus ishlar ham bor. Masalan, E.M.Volf o'z maqolasida fe'l-so'z va iboralar sinonimiyasi haqida fikr yuritadi.

Shu mavzuni yoritishda maxsus ishlar oz. O'zbek tili leksik sinonimlarini eng to'lqin talqin etuvchi asar deb hali ham S Usmonov maqolasini ko'rsatish o'rinli. Shundan keyin e'lon qilingan ishlar ichida o'zining nazariy hamda amaliy qiymati bilan alohida diqqatga sazovori A Hojiyev tuzgan sinonimlar lug'ati va unga yozilgan kirish qismidir. Ba'zi juz'iy nuqsonlardan qat'iy nazar shunday lug'atning dunyoga kelishini o'zbek leksikografiyasining juda katta yutug'i deb baholash lozim. Bu lug'at bayon qilingan fikr va tanqidiy mulohazalarga juda boy, faktik materiallarni birma – bir izohlash va tasniflashga suyanganligi bilan qimmatlidir. Sinonim deb hozirgacha so'z tushunilar edi, endilikda bu atama iboralarga nisbattan ham ishlatiladi. Shu sababli sinonim atamasini yolg'iz keltirib bo'lmaydi.

Hodisani sinonimiya deb nomlasak, so'zlardagi holat leksik sinonimiya deb, iboralardagi holat frazeologik sinonimiya deb, so'z bilan ibora o'rtasidagi bunday ma'no munosabati esa lesik-frazeologik sinonimiya deb atalishi lozim. Bu har uch

tur sinonimiya birgalikda lug'aviy sinonimiyani tashkil etadi, bunda u grammatik sinonimiyaga zid qo'yib atalgan bo'ladi.¹ Sinonimiya haqidagi umumiy nazariya va buning adabiyotlardagi aks etishini bir-bir bayon qilish ortqcha. Bevosita frazeologik sinonimiyaning o'zini tahlil qilishga kirishamiz. O'zbek tilidagi frazeologik sinonimiyani quyidagi nuqtai nazardan o'rganish mumkin:

1. Frazeologik sinonimiyaning miqdori;
2. Sinonimiya uyasiga birlashuvchi iboralarning miqdori;
3. Frazeologik sinonimiyaga va iboralarning turkumlanishi;
4. Frazeologik sinonimiya va polisemiya;
5. Frazeologik sinonimiyaning o'xshash va farqli tomonlari;
6. Leksik-frazeologik sinonimiya haqida

Variantlanish – barcha til birliklariga, shu jumladan frazeologik birlikka ham mansub hodisa. Ko'p variantli iboralarning asosiy qismini ikki va uch variantli iboralar tashkil qiladi. Umuman, frazeologik birliklarda variantlanish boshqa til birliklaridagiga nisbatan kuchli bo'lib, bir ibora variantlarining soni o'ntagacha yetadi. Variantlanish tufayli bir ibora boshqa bir iboraga aylanmaydi, bir iboraga xos boshqa obraz birligi, lug'aviy ma'no birligi saqlanadi. Variantlanish iboraga xos yaxlitlikning o'zi doirasida, shu yaxlitlik yo'l qo'ygan darajada voqe bo'ladi. Aks holda ibora yo'q bo'ladi, yoki boshqa ibora barpo qilinadi. Ibora tarkibini grammatik o'zgartirish bilan hosil bo'ladigan variantga grammatik variant deyiladi. Grammatik variantlanish ham xuddi leksik variantlanishda bo'lganidek, asosan ibora tarkibidagi biror grammatik qismni almashtirish, tashlash yoki unga qo'shish bilan voqe bo'ladi. Grammatik variantlanishda o'ziga xos hodisa so'z

¹ Bafoyeva M. "Badiiy nutqda frazeologik sinonimlardan foydalanish". – T.: O'TA. 2003. 2-son.-B.45.

komponentlarining joylashish tartibi asosida yuzaga keladiga variantlanish ham bor:

1. Almashtirish asosida paydo bo'ladigan: *o'tirgani joy topolmaslik; qo'ynini puch yong'oqqa to'ldirmoq.*
2. Qo'shish asosida paydo bo'ladigan variantlanish: *holdan toymoq va holdan toydirmoq; ko'ngli bo'shadi va ko'ngli bo'shashdi.*
3. Tashlash asosida paydo bo'ladiga variantlanish: *ko'zi ilindi – ko'z ilindi.*
4. Tartib o'zgarirish asosida: *bog'dan kelsa tog'dan kelmoq, tog'dan kelsa, bog'dan kelmoq.*

Ko'rinib turibdiki, variantlarni sinonimlardan farqlovchi belgi sifatida quyidagilar sanaladi:

1. Ayni bir tushunchaga teng kelish.
2. Emotsionallik darajasida teng kelish.
3. Funktsional stillarda ishatilishi bir xil bo'lish.
4. Istagan kontekstda biri o'rnida ikkinchisini ishlatish mumkinligi.
5. Kamida bir komponentni ayni bir so'z bo'lishi.

Majburiy bo'lmagan ammo variantlarni topib olishda yordam beradigan belgilar deb quyidagilar sanalgan:

1. Bir iboraning informatsiyasi natijasida tug'ulish va qisman boshqa-boshqa iboralarning to'liq tenglashuvi hamda o'xshab ketuvi natijasida tug'ulish.
2. Bir xil grammatik qurilishli bo'lishi.
3. Ayni bir yoki yaqin obrazning mavjudligi.

4. Izohlanish darajasining bir xilligi.

Turkiy tillar materialida, shu jumladan o'zbek tili materialida frazeologik variatsiya deyarli o'rganilmagan. O'zbek tili frazeologik boyligida allaqachon sezilgan, alohida ta'kidlangan-u, frazeologik variant tushunchasi va termini kiritilmagan. Grammatik variantlarni o'rganishga bag'ishlangan maqolalar ham e'lon qilingan, ammo bularda ham variant atamasi ishlatilmagan. Faqat muallifning so'nggi ishlaridan birida bu atama berilgan. Shunda ham misollar leksik variantlargagina keltirilgan. Ingliz tilida frazeologik variantlanish mavzusida so'z borganda, avvalo shuni ta'kidlash kerakki, variantlanish barcha til birliklariga, jumladan frazeologik birliklarga ham xos hodisa. Variantlanish va strukturaviy sinonimiyaning keng miqyosda rivojlanishi hozirgi ingliz tili frazeologiyasining o'ziga xos xususiyatlaridan biridir. Frazeologik variantlar – ma'noning sifati va hajmi jihatdan stilistik va sintaktik vazifasi jihatidan o'xshash turli ko'rinishlarga esa frazeologik birlik deyiladi.¹

Strukturaviy sinonimlar – leksik tarkibi bir-biriga o'xshash, lekin ma'no ottenkalari, stilistik yo'nalishi va obrazlilik jihatdan farq qiluvchi frazeologik birliklar. Frazeologik variantlar ham bir sturktura ham ko'p strukturaviy bo'lishi mumkin. Frazeologik variantlarning quyidagi tiplari ajratiladi:

1. Leksik variantlar – not to lift (raise, stir yoki turn) a finger, close (near) at hand, give a green light, a friend at court;
2. Grammatik variantlar – bunday variantlar yana uchga bo'linadi:
 - a) morfologik – the procrustes' bed = the Procustean bed;
 - b) sintaktik – take away smb's breath = take smb's breath away;

¹ Qilichev E. "Sinonimik iboralarning uslubiy xususiyatlari". – SamDU to'plami. 2006.-B.36.

c) morfologik-sintaktik – a Herculean labour = herculian labour's = a labour of Hercules;

3. Orfografik variantlar – hand in glove = hand-in-glove;

4. Qurama (kombinatsiyalashgan) variantlar – arouse/stir up a nest of hornest = bring/riese/stir a hornet's/hornets' nest about one's ears;

Ikki holatda frazeologik variantlanish yo'qolishi mumkin:

1) Agar variantlar orasida ayrim farqlar paydo bo'lsa, ular variantlik xususiyatini yo'qotadi va strukturaviy sinonimlarga aylanadi.

2) Variantlarning eskirishi va frazeologik birliklarning variantsiz birlikka aylanishi holatida. Masalan, show the white feather – boshlang'ich ko'rinishi show (mount) the white feather tarzida bo'lgan.

Strukturaviy sinonimlar bir-biridan quyidagicha farq qiladi:

1. Idiografik-strukturaviy sinonimlarda ma'noning u yoki bu darjada farqlanishi kuzatiladi. Masalan, **set one's heart on** va **set one's mind on**– biron narsaga intilmoq m'nosini bildiradi. Lekin **set one's heart on** biron narsani yurakdan istamoq, butun qalbi bilan intilmoq ma'nosini bildirsa, **set one's mind on** biron narsani istamoq, xoxlamoq ma'nosini anglatadi. Bu quyidagi maqollarda yaqqol ko'rinadi:

- Freda: I'll dance with you, if you like.

Capitain A: Please, don't think me impolite, but I have set my heart on dancing with Fraulein Sari.

- But he was not a man who let a thing drop when he has set his mind on to it.

2. Stilistik-strukturaviy sinonimlar stilistik yo'nalishlar bilan farqlanadi. Masalan, not to care to straws – oddiy so'zlashuv iborasi, not to care a down - qo'pol ibora. Misollar:

“Your uncle says he ought to resign from his cub”. – “Urldird doesn't care two straws about his club”.

But I don't care a damn-pardon me, mean, well, that's what I really mean. I don't care a damn about tiled baths and garbage incenrators.

Xulosa qilganda, frazeologiya tilshunoslikning alohida sohasi bo'lib, ular tildagi frazeologik birliklarning jami ma'nosida hamda shunday birlikni o'rganuvchi soha ma'nosida qo'llaniladi. Frazeologik birliklar o'ziga xos semantik, leksik va grammatik ma'nolarga ega bo'lgan til birligidir, ular tarkibidagi so'zlar grammatik va semantik jihatdan bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lib, bir butun ma'noni anglatadi. Shuningdek, frazeologik birliklar ko'chma ma'noda, obrazli ifodalarda ishlatiladi hamda ular tarixiy qo'llanish me'yorlariga ega.

III BOB

KASBGA OID FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING LEKSIK-SEMANTIK, GRAMMATIK XUSUSIYATLARI VA ULARDA EMOTSIONAL-EKSPRESSIVLIKNING IFODALANISHI.

1-bo'lim: Kasbga oid frazeologik birliklarning leksik semantik xoslanishi

Metaforik iboralar hamda ko'plab grammatik iboralar ixtisosli nutqlarda yuzaga kelgan. Adabiy tilda barcha inson faoliyat turlari o'zining so'z boyligi, ayniqsa metaforik nutqlarda maxsus iboralariga ega. Bizning nutqimiz hayotning bitmas boyliglarini, uning o'zaro bog'liqligini, barcha fikr va his – tuyg'ularimizni to'liq namoyon eta olishga qodir emas; badiiy til garchi so'z yasash imkoniyatlari cheklangan bo'lsa-da, bizga hammavaqt bildirmoqchi bo'lgan fikrimizni o'rnini bosa oladigan unga yanada kengroq ma'no ottenkalarini qo'sha oladigan maxsus terminlar berishni taqozo etadi.

Idiomalar turli soha vakillari yoki sport bilan (barcha inson faoliyat turlari) shug'ullanadigan xalq tomonidan yaratilgan lo'nda, jonli, ifodali nutq birligi bo'lib, ularni nutqda ishlatish bir qancha qulayliklarni yuzaga keltiradi. Suvdagi dengizchilar, o'rmondagi ovchilar, daladagi dehqonlar, qozon tepasidagi oshpazlar – umuman, buyruq berish istagida bo'lgan kasb egalari o'z sohalariga oid yorqin so'z birikmalari hamda go'zal metaforalarni qo'llay olganlar. Oqibatda bu nutqiy ifodalarning ba'zilari yanada keng ma'no kasb etib, shunga o'xshash vaziyatlar yoki boshqa joylarda, ko'pincha hazilomuz tarzda ishlatiladigan bo'ldi. Shunday qilib, “dengizchi o'zining dengizga oid iboralarini, baliqchi, uy bekasi, sportchi qaysi mavzuda so'z olib borishlaridan qat'iy nazar o'z iboralarini keng qo'llay boshlaganlar va ushbu yorqin va ifodali iboralar asta –sekin adabiy tilga kirib uni yanada shakllantirib boyitib boradi”.¹

Ingliz tilida dengiz bilan bog'liq turli xil idiomalar mavjud. Yorqin va ifodali nutq egalari dengizchilar o'zlarining maxsus birikmalariga boydirlar. Masalan;

¹ Феделенкова Т.Н. Английская Фразеология. Архангельск, 2000. 1988. -С.46.

to drop the pilot (uchuvchi xizmatlaridan bosh qaytarish) – yaxshi maslahatgo'ydanda bosh tortmoq ma'nosida. Shuningdek, ingliz tilida ov va poyga bilan bog'liq mashg'ulot turlari haqida yaralgan ko'pgina iboralar mavjud.

O'zbek tilida qishloq xo'jaligi sohasiga oid frazeologik birliklar tez-tez uchrab turadi. O'zbek tili matal va maqollarida cho'pon, tegirmonchi, dehqonchilik kabi faoliyat turlari o'z aksini topgan.

Masalan: **cho'ponning tayog'idan to'g'ri (halol, haqgo'y inson haqida); dehqon yomg'irda tinadi (ishga qobiliyatli) ; cho'pon o'lganda (tun – u kun ishlaydigan inson haqida) ; tegirmonchidan un so'rama (xasis inson haqida).**

Ko'pgina yorqin frazeologik birliklar oshxonada paydo bo'lgan. Bunday iboralar ayollar tomonidan yaratilganligi ehtimoldan xoli emas albatta. Bunday til birliklari hayotiy tajriba va donishmandlikdan kelib chiqqanligi ma'lum. Masalan:

Ingliz tilida: too many cooks spoil the bruth (said when there are too many people involved in trying to do the same thing , so that the final result will not be good) yoki o'zbek tilida : ataladay suyuq (ojiz).

Frazeologik lug'atlar o'zining ko'pchiligida xalq qiziqishlari va har kunlik mashg'ulotlari bilan chambarchas bog'langan xalqqa tasvirli va idiomatik ifodalarni aks etadilar. Bu bazida butkul savodsiz va chalasavodlilar ijodlarining natijasidir, holbuki idiomalar yoki eng chiroyli obrazli ifodalar kutubxona yoki mehmonxonalarda emas balki oshxona, og'ulxonalarda paydo bo'lgan.

Butunlay olganda har qanday tilning frazeologik lug'at tarkibi o'zining milliy xususiyatlariga egadir. Ikkita yoki undan ko'p tillarning frazeologik tarkibining farqi aniq nimada namoyon bo'lishini faqatgina ularning taqqoslab o'rganilishida aniqlash mumkin. Albatta bu farq taqqoslanadigan tillarning genetik aloqasi qanchalik uzoqlashgan bo'lsa, shunchalik bu farq chuqurroq bo'ladi. Va aksincha, tillar qanchalik yaqin bo'lsa shunchalik frazeologiya sohasida ularda ko'p o'xshash xususiyatlar seziladi.

O'xshash va o'xshash bo'lmagan tillarda frazeologik birliklarning **kontrastivli tahlili frazeologiya nazariyasini taqqoslaydigan tillardan har birining o'ziga xosligini aniqlab faqat sonli emas, balki sifatni ham boyitadi.**

Hozirgi zamon ingliz va o'zbek tillarining frazeologik birliklarining keng guruhi jismoniy mehnat sohasida kasb bo'yicha umumiy komponent nomi mavjudligi bilan birlashgan. Bu komponentlar quyidagilar:

Ingliz tilida: baker , cobbler, cook, driver, fisher, hunter, nurse, tailor, shepherd;

O'zbek tilida: nonvoy, etikdo'z, oshpaz, haydovchi, baliqchi, ovchi, hamshira, tikuvchi, cho'pon.

Jadval №1

Baker – nonvoy

Kasb oti komponenti (jismoniy mehnat sohasida)	Frazeologik birliklar	Badiiy asarlardan misollar
Baker	1. Baker's dozen	Mrs. Joe has been out a dozen times, looking for you, Pip. And she's out now, making it a <u>baker's dozen</u> ("Great Expectations", by Charles Dickens)
	2. The butcher, the baker, the candlestick maker	Who were the other two? One was a <u>butcher, one was a baker and one was a candlestick maker.</u> (Danny Teal "Absurdica")

	3. To spell the baker	If an old man will marry a young wife, why then--why then--why then--he must <u>spell Baker!</u> (“Giles Corey from the Salem Farms”, by Henry Longfellow)
	4. Pull devil, pull baker	The wrestling-match could be seen plainly from the boats;... So it went on, <u>pull devil, pull baker</u> , the wretched girl screaming all the time, and Bob letting out a yell now and then to warn his boat to keep well clear of the ship. (“Lord Jim”, by Joseph Conrad)

O'zbek tilida shunga o'xshash frazeologik birliklar mavjud bo'lib, ular quyidagilar: bo'zchi belboqqa yalchimas; oshpazning qozoni hammavaqt qora .

1 – jadvalda ingliz tilidagi baker oti o'zbek tilidagi nonvoy otidan ancha unumdorli komponent bo'lib xizmat qilyapti.

The baker's dozen; the butcher, the baker, the candlestick maker frazeologizmlarida tadqiqot qilinuvchi birlik to'g'ri ma'noda ishlatilyapti. Boshqa frazeologizmlarda esa –ko'chma ma'noda.

To spell the baker frazeologizmida harakatning o'xshashligiga asoslangan (kasb nomlarida metaforik ma'no ko'chish yo'li asosida)

“baker” komponentiga ega barcha frazeologizmlar haqiqiy inglizcha bo'lib hisoblanadi, ulardan ba'zilari ingliz turmushining bazi bir tomonlarini ko'rsatadilar. Masalan: the baker's dozen – shayton dyujini

Qadimgi ingliz odatlari bo'yicha non sotuvchilari bo'lka sotadiganlardan 12 ta non o'rniga 13 ta nonni olganlar, shunda o'n uchinchi sotuvchilar daromadi hisobidan borgan. Ifoda shabashda jodugar kampirlar soni bilan bog'liq bo'lgan o'rta asrli ishonishga borib taqaladi.

Pull devil, pull baker - qo'g'irchoqli tomosha bilan bog'liq ibora, bo'lka sotuvchi bilan shaytonning mushtlashish sahnasidan kelib chiqqan.

O'zbek tilida aytib o'tilgan frazeologizmlarning komponentlari ham ko'chma ma'noda ishlatiladi.

Jadval №2

Cobbler, shoemaker – etikdo'z.

Kasb oti komponenti (jismoniy mehnat sohasida)	Frazeologik birlik	Badiiy asarlardan misollar
Cobbler, Shoemaker	1. A cobbler must stick to his last.	No creed can be so limiting as that awful adjuration that the <u>cobbler must stick to his last.</u> (“What’s Wrong with the World”, by G.K. Chesterton)
	2. The shoemaker’s wife is the worst shod.	
	3. Shoemaker’s stock	
Etikdo'z	1. Etikdo'z ham poshnaga ham nahalga uradi	Sobir, ikki xil gapirmang, <u>etikdo'zlardek ham poshnaga ham nahalga urmang.</u> (A Q)

Jadvalda ko'rinib turibdiki, etikdo'z komponenti birta frazeologik birlikni hosil qilyapti. Ingliz oti cobbler komponentiga ega The cobbler must stick to his last frazeologik birligi etikdo'z etikdan yuqori bo'lmasin frazeologik

birligi bilan teng kelyapti. The shoemaker's wife is the worst shod – etikdo'z etiksiz frazeologizmining obrazli asosi bir xil bo'lib hisoblanadi.

Jadval №3

Cook – oshpaz

Kasb oti komponenti (jismoniy mehnat sohasida)	Frazeologik birlik	Badiiy asarlardan misollar
Cook	1. Head cook and bottle washer	
	2. Son of the sea cook	The rest of you arm yourselves with crowbars and axes, an' see that <u>son of a sea cook</u> don't get out on deck again alive. ("The Mucker", by Edgard Rice Burroughs)
	3. Too many cooks spoil the broth.	The structure failed because it was designed by a group of architects. Too many cooks spoil the broth.
	4. Every cook praises his own broth.	
	5. God sends meat and the devil sends cooks	
	6. Cold cook	
Oshpaz	1.Oshpazning kapkiri bo'lmoq	Har ishga oshpazning kapkiri bo'lavermang - dedi ammasi.

		(S. Abduqahhor)
	2.Oshpaz ko'paysa osh sho'r bo'ladi.	

Cook komponenti 6 ta frazeologik birlikning komponenti bo'lib xizmat qiladi. "Cook" – oshpaz ayol, "son" – bolalar komponentlarining "son of a sea cook"

va oshpaz ayolning bolalari birta semantik sohaga tegishlidir.

"Too many cooks spoil the broth" , " every cook praises his own broth" , " head cook and bottle washer" frazeologik birliklarida "cook" komponenti obrazli asosni yaratishda ma'noli markaz bo'lib xizmat qilyapti.

"God sends us meat and the devil sends us cooks" frazeologik birligida "cooks" semantik markazdir ammo o'z ma'nosida.

" too many cooks spoil the broth " ingliz frazeologizmining ekvivalenti bo'lib o'zbek tilida " bakovul ko'paysa osh sho'r bo'ladi" frazeologizmi hisoblanadi.

Jadval №4

Driver – haydovchi.

Kasb oti komponenti (jismoniy mehnat sohasida)	Frazeologik birlik	Badiiy asarlardan misollar
Driver	1. Backseat driver	Aunt Mary drives us all crazy with her instructions ; she's incurable backseat driver.

	2. To swear like a truck driver	
	3. To be in the driver's seat	It was nice to be in the driving seat again, after two years of being chauffeured around.
Haydovchi	1. Otasining arvohi urgan odam haydovchi bo'ladi	

4 – jadvalda ta'kidlanib turganidek, jismoniy mehnat sohasida kasb otlaridan “driver” uchta frazeologik birlikning komponenti bo'lib xizmat qiladi. O'zbek tilida esa “haydovchi” oti 1 ta frazeologizmning komponentidir.

Jadval №5

Hunter – ovchi

Kasb oti komponenti (jismoniy mehnat sohasida)	Frazeologik birlik	Badiiy asarlardan misollar
Hunter	1. Lion hunter	They could see the tall figure and loose many of the <u>lion-hunter</u> dominating the little group. (“The Man Who Knew Too Much”, by G.K. Chesterton)
	2. Fortune hunter	...but she was certainly capricious enough to be displeased with our behaviour and in a few weeks after, either to revenge our Conduct, or releive her own

		solitude, married a young and illiterate <u>Fortune-hunter</u> . (“Love and Friendship”, by Jane Austen)
	3. Bounty hunter	
	4. Head hunter	Truly, the life of the merry head-hunter captivated me. “ <u>The Head-Hunter</u> ”, by O. Henry)
Ovchi	1. Ovchining ovi yurdi	
	2. Ovchining tozisi bo'lmoq	Salimboy shu kunlarda ovchining tozisi bo'lib qolgan. (M.Murod)

Jadval №6

Fisher – baliqchi

Kasb oti komponenti (jismoniy mehnat sohasida)	Frazeologik birlik	Badiiy asarlardan misollar
Fisher	1. The great fisher of souls	Through me passed a trembling as one who has stood on the very verge of the gulf where in the men of the Louisades says lurks the <u>fisher of the souls</u> of men, and has been plucked back by sheerest chance. (“The Moon Pool”, by Abraham

		Merritt)
Baliqchi	1. Baliqchi baliqchini uzoqdan ko'radi	

Fisher va baliqchi otlari birta frazeologizmining komponenti bo'lib xizmat qiladi.

Jadval №7

Nurse – hamshira

Kasb oti komponenti (jismoniy mehnat sohasida)	Frazeologik birliklar	Badiiy asarlardan misollar
Nurse	1. Dry nurse	But didn't you tell me you were going to make a genius of him? I know what that means. You will dry nurse him till some day he is able to understand you. (“Letters of Two Brides”, by Honoré de Balzac)
	2. Wet nurse	Two days after the letter came, Eve was obliged to find a <u>wet-nurse</u> ; her milk had dried up. (“Eve and David”, by Honoré de Balzac)

Shepherd – cho'pon

Kasb oti komponenti (jismoniy mehnat sohasida)	Frazeologik birliklar	Badiiy asarlardan misollar
Shepherd	1. Sheep without a shepherd	I can conceive that an assemblage of some sixty notabilities of Champagne needs a chairman to guide it; for no flock of <u>sheep can get on without a shepherd</u> . (“The Deputy of Arcis”, by Honore de Balzac)
	2. Shepherd's pie	
	3. Shepherd's plaid	'Pick out very light ones, if you please, young man,' interposed a genteel female, in <u>shepherd's-plaid</u> boots, who appeared to be the client. (“The Life and Adventures of Nicholas Nickleby”, by Charles Dickens)
Cho'pon	1. Echkining o'lgisi kelsa cho'ponning nonini yeydi	
	2. Cho'ponning tayog'i bo'lmoq	

3. Dehqon yomg'irda tinadi, cho'pon o'lganda	
4. Cho'ponning cho'lig'i bo'lmoq	Bunday ishing yaxshi emas , cho'ponga cho'liqlik senga yarashmaydi. (S.Ahmad)

Ingliz tili leksik birligi bo'lmish “shepherd” 3 ta frazeologik birlikning komponentidir. O'zbek tilidagi “cho'pon” oti ingliz tilidagi “ shepherd “ oti bilan taqqoslanganda ko'proq unumdorli bo'lib hisoblanadi.

Jadval №9

Tailor – tikuvchi

Kasb oti komponenti (jismoniy mehnat sohasida)	Frazeologik birliklar	Badiiy asarlardan misollar
Tailor	1. The tailor makes the man	
	2. Tailor's dummy	
	3. The devil among the tailors	
	4. The three tailors of Tooley Street.	
	5. Tom Tailor	
	6. Merchant tailor	In due time we mustered once again before the <u>merchant tailor's</u> , and having done so, crossed over to the

		city in the ferry-boat. ("American notes", by Charles Dickens)
	7. Tinker, tailor, soldier, sailor.	
Tikuvchi	1. Tikuvchi to'nni tor bichmas	
	2. Tikuvchining qo'li gul	

9 – chi jadvalda, ingliz tilidagi “tailor” oti o'zbek tilidagi “tikuvchi” oti bilan taqqoslanganda ma'noli frazeologik unumdorlikni ko'rsatadi, va yettita frazeologik birlikning tarkibi bo'lib xizmat qiladi.

Frazeologik birliklar berilgan komponentlar bilan taqqoslanayotgan tillarda qadimgi bo'lib hisoblanadilar, masalan: “three tailor's of Tooley Street”

(o'zini butun xalq vakili deb hisoblovchi odamlar guruhi). Ingliz siyosiy arbobi D. Konningning guvohligi bo'yicha Tuli ko'chasidan uchta tikuvchi arznoma bilan parlamentga murojaat qilganlar, bu arznoma shunday boshlanadi. “we , people of England” Shunday qilib bu hol paydo bo'ldi.

Taqqoslanadigan tillarda frazeologik birliklarning obrazli asoslarini tanalshda milliy o'ziga xoslik aks etadi. Shunday qilib o'zbek tilida “tikuvchi” so'zi “ovchi”, “suvchi” va boshqa so'zlar bilan qofiyani tuzadi, ammo komponentli tarkib va obrazli asos farq qiladi.

“tinker”, “tailor”, “soldier” va “three tailor's of Tooley Street” frazeologik birliklarida tadqiqot qilinayotgan leksik birlik metonimiya vositasida obrazli asosni yaratishda ishtirok etadi. To'g'ri ma'noda tailor, merchant tailor va tom tailor frazeologizmlar tarkibiga semantik markaz sifatida kiradi, shunda komponentlar semantikasi frazeologik birliklarning semantikasini oldindan aniqlashga yordam beradi.

Shunday qilib, kasb oti komponentiga ega frazeologik birliklarning taqqosli tadqiqoti (jismoniy mehnat sohasida) semantika komponentli tarkib, obrazli asos nuqtai nazaridan quyidagi guruhlarga ajratishga imkon beradi:

1. Boshqa tilda semantik moslikka ega, ammo komponentli va obrazli tarkib bilan farq qiluvchi frazeologizmlar:

“Head cook and bottle washer”, “ too many cooks spoil the broth”, “ the shoemaker’s wife is the worst shod” frazeologizmlari o'zbek tilida

“ bakovul ko'paysa osh sho'r bo'ladi” frazeologizmlari mos keladi.

2. Bu guruhga semantik jihatdan moslikka ega bo'lmagan, qadimgi ingliz va o'zbek frazeologizmlari kiradi: baker's dozen

Tilda bajarilgan funksiyalar bo'yicha ingliz va o'zbek tillarining frazeologik birliklari ikkita katta guruhga bo'linadi: kommunikativ funksiyaga ega bo'lgan va bo'lmagan frazeologizmlar. Shunday qilib kommunikativ funksiyaga ega bo'lgan frazeologik birliklar ikkiga kommunikativ va nominativlilarga bo'linadi.

Ingliz va o'zbek tillarida kasbga oid frazeologik birliklarning nutqiy faolligini aniqlash uchun ingliz tilining eng ko'p tarqalgan shaxs oti komponenti bilan yasalgan 24 ta frazeologik birliklari tahlil qilinadi:

1. **Baker: to spell the baker; baker's dozen; the butcher, the baker, the candlestick maker; pull devil pull baker – nonvoy**

2. **Builder: Jerry – builder – quruvchi**

3. **Busman: busman's holiday – avtobuschi**

4. **Butcher: the butcher, the baker, the candlestick maker; butcher's bill, butcher's meat- qassob**

5. **Carpenter; such carpenters such chips- duradgor**

6. **Cobbler : shoemaker: a cobbler must stick to his last, the shoemaker's wife is the worst shod; shoemaker's stock – etikdo'z**

7. **Cook : head cook and bottle washer; son of the sea cook; too many cooks spoil the broth; every cook praises his own broth; God sends us meat and the devil sends cooks; cold cook – oshpaz**

8. **Driver: back-seat driver - haydovchi**
9. **Fisher: the great fisher of souls - baliqchi**
10. **Hatter: mad as a hatter – telpakdo'z**
11. **Hewer: hewers of wood, drawers of water – daraxt kesuvchi**
12. **Hunter: lion hunter; fortune hunter - ovchi**
13. **Glazier: Is your father a glazier? –shisha kesuvchi**
14. **Labourer: the labourer is worthy of his fire; labourers in the vineyard - mehnatkash**
15. **Navy: to work like a navy - harbiy**
16. **Nurse: dry nurse; wet nurse- hamshira**
17. **Potter: clay in the hands of the potter - kulol**
18. **Printer: printer's devil – harf teruvchi**
19. **Shepherd: sheep without a shepherd; shepherd's pie; shepherd's plaid – cho'pon**
20. **Tailor: the tailor makes the man; tailor's dummy; the devil among the tailors; the three tailors of Tooley Street; Tom Tailor; merchant tailor - tikuvchi**
21. **Tiller: tillers of soil – yer haydovchi**
22. **Tinker: not to care a tinker's curse; to swear like a tinker; tinker, tailor, soldier, sailor- misgar**
23. **Worker: white collar worker, blue collar worker - ishchi**
24. **Workman: a bad workman quarrels with his tools; as is the workman so is the work - xizmatchi**

O'zbek tilidagi kasbga oid frazeologik birliklar:

1. Bo'zchining mokisidek qatnamoq(tez harakat)

Qudasi ham uning ishxonasiga bo'zchining mokisidek qatnaydigan bo'lib qoldi,
Ashirmat (A. Qahhor)

2. Ovchining tozisi bo'lmoq(yugurdak)

Salimboy shu kunlarda ovchining tozisi bo'lib qolgan.

(M. Murod)

3. Oshpazning kapkiri (har ishga aralashmoq)

Har ishga oshpazning kapkiri bo'lavermang - dedi ammasi. (S. Abduqahhor)

4. Qassobga go'sht qayg'usi (manfaatdorlik)

Qassobga go'sht echkiga jon qayg'usi deganlari rost ekan. (M. Murod)

5. Kosagardan bir puf (sirini yashirmoq)

Xalqimizda kosagardan bir puf degan naql bor. Siz ham bo'sh kelmang, do'stim.

(A. Muxtor)

6. Cho'ponning cho'lig'i (yugurdak)

Bunday ishing yaxshi emas, cho'ponga cho'liqlik senga yarashmaydi. (S. Ahmad)

7. Karnaychidan bir puf (biror narsa haqida xabar bermoq)

Karnaychidan bir puf deb, yuribsizmi? (O. Salom)

Tadqiqot qilinayotgan guruhlarining nominativ frazeologik birliklari

Nominativ frazeologik birliklar atash ma'nosiga ega bo'lib ular shaxs va predmetlarning ko'rinishi, hatti – harakati, holati, sifatini bildiradi.

Nominativ frazeologik birliklarga o'zining leksik va grammatik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda quyidagi leksik birlaklar kiradi: Substantivli: baker's dozen, Jerry Builder, butcher's bill, busman's holiday, ishga zo'r, zo'r dehqon ishchi cho'pon

Sifatli : mad as hatter, hungry as a hunter, ammamning buzog'i (bo'sh)

Fe'lli: to spell the baker, to work like a navy, not to care a tinker's curse , og'zidan bodi kirib shodi chiqdi.

Kasbga oid (nominativ) frazeologik birliklarning ayrim semantik jihatlari.

Tadqiqot qilinayotgan nominativ frazeologik birliklar keng semantik hajmga ega.

Ular predmet, hodisa va holatlarni belgilaydi. Kasbga oid frazeologik birliklarning ko'pchiligi inson va inson mehnat faoliyati bilan bog'langan tushunchalarni ifodalaydi. Demak ular quyidagilar:

a) Inson tabiatining tavsifini ifodolovchi frazeologik birliklar:

Ingliz tilida:

Tailor's dummy – boy

Clay in the hands of the potter – tez ta'sirga beriladigan odam

Mad as a hatter – jinni

Fortune hunter – boy kelin axtaradigan odam

Lion hunter – mashhurlik axtaruvchi

O'zbek tilida:

ammamning buzog'i- landovur

pixini yorgan – puxta

aravani quruq olib qochish – va'daboz

yuzi shuvut – behayo

b) Biror hodisa yoki holatga inson munosabatini bildiruvchi frazeologik birliklar:

Not to care a tinker's curse – e'tiborsiz bo'lmoq, tupurmoq

c) Inson mehnat faoliyatini ifodolovchi frazeologik birliklar:

Ingliz tilida:

Tillers of soil – qishloq xo'jaligi ishchilari

Dry nurse – “ enaga” boshqalarga qaraydigan odam

Wet nurse – boquvchi

Hewers of wood, drawers of water – qora ishchilar

White collar worker – (amer.)- xizmatchi

Merchant tailor – o'z materialidan ko'ylak tikadigan tikuvchi

Cold cook – go'rkov

The butcher, the baker, the candlestick maker- har xil soha vakillari

O'zbek tilida:

Enagalik qilmoq – yalinmoq

Qul bo'lmoq – xizmatkor

v) Odamlar guruhining terma ahamiyatini ifodolovchi frazeologik birliklar:

sheep that have no shepherd – tartibsiz guruh

the devil among the tailors – jamoa jangi

tinker, tailor, soldier, sailor – turli soha namoyondalari

the three tailors of Tooley Street – o'zlarini xalq nomidan vakil deb

hisoblovchi katta bo'lmagan guruh a'zolari

f) Inson xulq atvorini ko'rsatuvchi frazeologik birliklar:

Ingliz tilida:

Back – seat driver – o'zining maslahatlari bilan haydovchini chalg'itadigan passajir

O'zbek tilida:

Boshiga ko'tarmoq - to'polon qilmoq

Ishiga aralashmoq – xalaqit bermoq

g) Kiyim-boshni ifodolovchi frazeologik birliklar:

Shoemaker stock – tor batinkalar

Shepherd's plaid –

h) Yegulik yoki oziq-ovqat komponentli frazeologik birliklar:

Shepherd's pie – kartoshka va go'shtdan qilingan pirog

Butcher's meat- go'sht

i) Ochlik sezgisi yoki ochko'zlikni bildiruvchi frazeologik birliklar:

Hungry as a hunter – bo'riday och

j) Har xil tushunchalarni ifodolovchi frazeologik birliklar:

Ingliz tilida:

The great fisher of souls – shayton

Baker's dozen – shayton dyujini

Butcher's bill – jangda vafot etganlar ro'yhati

Busman's holiday – bayram kunlaridagi ish

O'zbek tilida:

Kovushini to'g'rilamoq – haydash

Och bo'ri – tashna

Oyoq cho'zmoq – olamdan ko'z yummoq

O'zbek va ingliz tillarida jismoniy mehnat sohasida kasb oti komponentli nominativ frazeologik birliklarning semantik guruhi tahlili shuni ko'rsatadiki ularning ko'pchiligi inson mehnat faoliyati bilan bog'liq. Ular insonlarning jismoniy mehnatini ko'rsatuvchi frazeologik birliklardir.

Kasbga oid nominativ frazeologizmlarning grammatik tuzilishi. Kasb oti komponentiga ega oti frazeologik birliklar frazemalar va qisman nominativli predikativli frazeologik birliklarga bo'linadi. Frazemalarni o'z navbatida ikki tipga bo'lish mumkin:

1) Bo'ysunadigan so'z birikmalari strukturasi bilan yasalgan kasbga oid frazemalar

2) Ijodli so'z birikmalari strukturasi bilan yasalgan kasbga oid frazemalar Eng ko'p tarqalgan frazemalar bo'sungan frazemalar hisoblanadi.

1) tadqiqot qilinayotgan substantiv frazemalarning ko'proq xarakterli tuzilishi tipi bo'lib, u old qo'shimcha yordamida yasaladi, ya'ni otning old qo'shimchali bo'ysunadigan aloqa vositasida preozitivli aniqlash bilan (yoki usiz) ot bilan birga qo'shilishi. Bu uchun ingliz tilida quyidagi old qo'shimchalar ishlatiladi: before, for, on, of, about, in, among, without, va boshqalar.

“Of ” old qo'shimchasi yordamida **tillers of soil** leksemalari birlashadilar, leksema va leksemalar birikmasi **son of sea cook, the great fisher of souls**. Murakkab bo'ysunuvchi leksema **the three tailors of Tooley Street** da leksemalarning ikkita bo'ysunadigan birikmalari of old qo'shimchasi yordamida birlashgan.

“In” old qo'shimchasi yordamida ikkita leksemalar birlashadilar. **Laborers in the vine yard. Clay in the hands of the potter**

“Among “– **the devil among the tailors and sheep without a shepherd**

Of va in old qo'shimchalari sermahsul hisoblanadi.

3) ko'pgina kasbga oid substantivli frazemalar qaratqich kelishigida ot so'z turkumi bilan yasalgan:

baker's dozen, busman's holiday, butcher's bill, butcher's meat, printer's devil, shepherd's pie, shepherd's plaid, shoemaker's stock, tailor's dummy

o'zbek tilida kasbga oid substantiv frazemalar ham shunday ya'ni qaratqich kelishigidagi frazemalardir. Masalan :

ammamning buzog'i, bo'zchining mokisi

Ayrim kasbga oid frazemalar o'zlariga aloqador bo'lgan otlar bilan bog'lanadilar. Masalan: **bo'zchi belboqqa yalchimaydi; qulolsiz mo'ndida suv ichadi, oshpaz ko'paysa osh sho'r bo'ladi.**

4) ingliz tilida shuningdek sifat + son strukturasi ega kasb oti komponentini olgan substantiv frazemalar tipi ham uchraydi:

a) bu yerda bir maromdagi urg'uga ega va bo'lib yozilgan andazaga ega frazemalar kiradi: cold cook, dry nurse, wet nurse;

b) birinchi bo'lagi murakkab so'zdan yasalgan frazemalar: back-seat driver

c) ot + ot so'z turkumlaridan yasalgan frazemalar: lion hunter, fortune hunter, merchant tailor, Jerry Builder

Kasb oti komponentiga ega substantiv ijodiy tuzilishli frazemalar quyidagilarni tashkil qiladi: 1) and – head cook and bottle washer bog'lovchilari bilan to'rt bo'lakli frazema. “cook” va “bottle” sinonimlar emas ammo birta semantik sohaga tegishlidirlar. 2) to'rt bo'lakli frazema hewers of wood, drawers of water 3)the butcher, the baker, the candlestick maker; tinker, tailor, soldier, sailor – birma bir aytib o'tish bilan birlashgan bir semantik sohasining komponentlari. O'zbek frazeologiyasida ijodiy substantiv frazeologizmlar kam darajada taqdim etilgan.

Kasb oti komponentiga ega adektivli (sifatli) frazeologik birliklarga mad as a hutter, hungry as a hunter – ushbu frazeologik birliklarda birinchi component asosiy ma'noni beradi.

Fe'lli nominativ birliklarga quyidagilar kiradi :

1) bo'ysungan strukturaga ega komparativ felli frazemalar: to work like a havvy ; to swear like a tinker; aravakashning og'zi buzuq; temirchining so'zi sassiq

2) to spell the baker fe'lli frazeologik birlik ikki komponentli bo'lib hisoblanadi, obyektiv ma'noni ko'rsatadi.

Xulosa qilganda, kasbga oid frazeologik birliklarning semantik jihatlarini, har ikkala tilde ham insonning jismoniy mehnati bilan bog'liq ekanligini ko'rsatadi, ular bevosita inson mehnat faoliyati bilan bog'langan tushunchalarni ifodalaydi.

2-bo'lim: Kasbga oid frazeologik birliklarning semantik-grammatik hamda emotsional-ekspressiv xususiyatlari

Kasb oti komponentiga ega kommunikativ frazeologik birliklar sinfiga maqollar kiradi. Maqollar xalq tomonidan yaratilgan eng nodir fikrlar yig'indisidir.

- Is your father a glazier? So'roq gap tuzilishiga ega; pull devil pull baker (shiddatli sanoat musobaqalarida kim kimdan o'zar) buyruq gaplarda ishlatiladi. Ko'pgina maqollar buyruq gap tuzilishiga ega. Bog'lovchili bog'langan qo'shma gap strukturasi ega bo'lgan maqollar: **all are not hunters that blow the horn; the stone which builders refused is become the head stone of the corner.** Har ikki frazeologik birlik which va that bog'lovchilari bilan bog'langan.

As is the workman so is the work (ishchi qanday bo'lsa ish ham shunday bo'ladi) teng bog'lovchili bog'langan maqol.

O'zbek tilining kommunikativ frazeologik birliklarini ko'rib chiqib aytish mumkinki hozirgi zamon o'zbek tilida ular ikkita asosiy guruhga bo'linadilar: maqolli xarakterga ega bo'lmagan kommunikativ frazeologik birliklar va maqolli xarakterga ega kommunikativ frazeologik birliklar. Birinchi guruhga quyidagilar tegishli :

- **Oq desa oq ko'k desa ko'k; aytgani aytgan degani degan; borida chora – chora yo'g'ida banda bechora.**

Ikkinchi guruhga esa aforizm xarakteridagi frazeologik birliklar kiradi.

Demak o'zbek tilida kommunikativ frazeologik birliklar ikkiga bo'linar ekan, maqolli xarakterga ega bo'lmagan kommunikativ frazeologik birliklar va maqolli xarakterga ega kommunikativ frazeologik birliklar.

Ingliz frazeologiyasida maqol va matallar o'rtasida chegara mavjud emas, ingliz tilida maqol lug'atlari o'zida maqolli xarakterga ega bo'lmagan kommunikativ

frazeologik birliklarni ham kiritadilar. Barcha tillarda maqollar asosan undov gap tuzilishida bo'ladi.

Kommunikativ frazeologik birliklarning semantikasi. Kasbga oid kommunikativ frazeologik birliklar semantikasi inson tushunchasi bilan bog'liqdir.

5) **Ba'zi bir insoniy sifatlarning tavsifini beruvchi frazeologik birliklar:**

Ingliz tilida: **every cook praises his own broth – (har bir loyxo'rak o'z botqoqini maqtaydi)**

All are not hunters that blow the horn – (hamma yarqiragan narsa ham oltin emas)

Too many cooks spoil the broth – bakovul ko'paysa osh sho'r bo'ladi

O'zbek tilida:

Har kimniki o'ziga oy ko'rinar ko'ziga

6) **Insonning mehnat faoliyati, bazi bir kasblarining baxosini ifodalovchi frazeologik birliklar:**

Ingliz tilida:

The tailor makes the man - (insonni tikuvchi qiladi)

God sends us meat and the devil sends us cooks – (xudo yegulik uzatadi sgrayton esa oshpaz)

O'zbek tilida

Mehnat insonni ulug'laydi

Mehnatning tagi rohat

Demak, ingliz va o'zbek tillarida kasbga oid kommunikativ fraeologik birliklarning semantik tahlili shuni ko'rsatadiki, tadqiqot qilinayotgan tillarning maqol va matallari o'z mazmunlari bo'yicha xilma – xil xalqlar hayotining hamma tomonlarini qamrab oladi.

Ingliz va o'zbek tillarida kasbga oid frazeologik birliklar semantik jihatdan nominativ hamda kommunikativ frazeologik birliklarga bo'linadi.

Ushbu frazeologik birliklarning nominativli sinfiga ozida substantivli, adektivli(sifatli), fe'lli frazeologik birliklarni kiritadi. Kasbga oid nominativ

frazeologik birliklar guruhi 2 ga bo'linadi: bo'ysunadigan so'z birikmasining tuzilishi bilan yasalgan frazeologik birliklar hamda ijodiy so'z birikmasining tuzilishi bilan yasalgan frazeologik birliklar.

Eng ko'p tarqalgan bo'ysungan strukturali frazeologik birliklardir. Ingliz tiliga nisbatdan o'zbek tilida bunday birliklar kamroq uchraydi.

O'zbek tilida kommunikativ frazeologizmlariga kiritilgan maqol va matallar har xil strukturaga ega bo'lsa, ingliz tilida ularda hech qanday farq yo'q.

Milliy – madaniy axborotni olib yuruvchi frazeologik birliklar

Hozirgi vaqtda lingvistikada til va madaniyatning o'zaro ta'siri masalasiga katta diqqat qaratilmoqda. Til insonning madaniyatini, dunyoqarashini aks ettiradigan vosita bo'lib hisoblanadi. Til axborotni to'plash va saqlab qolish vositasi bo'lib, u dunyo haqidagi inson bilimining makonidir. Har qanday xalqning tabiati, turmushi, tarixi, boyligi har xil. Nazarimizda, dunyoning tilga oid manzarasini shakllantirishda frazeologiya alohida rol o'ynaydi. Tilning frazeologik tarkibining obrazli mazmuniga madaniy va milliy ko'rinish gavdalantirilgan. Axir bu obrazlar lug'atlarda odamlar ongida behuda mustahkamlanmagan, ular o'z ma'no va dolzarblikarini saqlab qolganlar. V. N. Teliyaning mulohazasi bo'yicha "frazeologik birliklarning o'zlari madaniy stereotiplarning rolini egallaydilar".

Tilda madaniy milliy etalonlari bilan assotsatsiya qilinadigan o'sha iboralar mustahkamlanadi. Frazeologik birliklar orqasida madaniyat turadi. Lingvistik adabiyotda tilning u yoki bu variantiga tegishli birlikni aniqlaydigan lokalli markalashtirish tushunchasi ishlab chiqilgan. Berilgan ishda lokalli markalashtirish tushunchasida urg'u uning ekstralingvistik shartlanish tomoniga ko'chadi, lokalli markalashtirish esa xalq hayotining moddiy sharoitlarini, mamlakat geografiasini, uning tarixi va madaniyatini, uning haqiqatligini ko'rib chiqadigan frazeologik birliklarning xususiyatlarini interpretatsiya qiladi. Milliy – fonli markalashtirish frazeologik birliklarning semantikasi, obrazlilikiga mahalliy kaloritni yaratadi.

Lokalli markalashtirishning tadqiqotida o'rganilayotgan frazeologik birliklarning semantikasi bir burchak ostida ko'rib chiqiladi, tildan tashqari haqiqat bilan

nisbatning ko'rsatgichi kabi, urg'u esa ichki shaklga, frazeologik obrazga ko'chadi. Frazeologik obraz chuqur o'ziga xoslikka ega. Uning yaratilishida kam bo'lmagan inson hayoti bilan bog'liq haqiqatning aniq hodisalari aksida ijtimoiy tomoniga tegishlidir. Lingvistlarning yakdillik fikri bo'yicha frazeologiya tilning ko'proq o'ziga xos milliy sohasi bo'lib hisoblanadi.

Frazeologik fond – bu faqat tilga oid emas, balki har bir xalqning madaniy – tarixiy xazinasidir. Frazeologik birliklar orqali tadqiqotchilar xalq olib yuradigan ma'lumotlar haqida xabar topadilar. Birgina frazeologik birlikni bilish bu kamdir, biz uning orqasida nima turganligini, uni mamlakatning madaniyati bilan tarixi bilan aloqalarini o'rganishimiz ham kerak deb o'ylayman.

Bundan tashqari, lokalli markalashtirish tadqiqot qilinayotgan frazeologik birlikda sotsiolingvistik shartlanish kategoriyasining bevosita kuzatilayotgan ko'rsatilishi bo'lib hisoblanadi.

O'zbek tili frazeologik birliklari milliy asosda paydo bo'lgan. Ingliz tilida boshqa tillardan olib o'zlashtirish nisbatdan kuchliroq, ayniqsa lotin va fransuz tillaridan.

Milliy – madaniy komponentlarni egallovchi tadqiqot qilinayotgan frazeologik birliklarning taqqosli tahlili o'z xususiyatlariga ular aks ettirgan jamiyatning hayot doirasi bilan bog'liq bo'lgan asosiy guruhlar bo'yicha ularning tasnifini ko'rsatadi:

- 1) Har xil ijtimoiy guruhlarining mehnatga oid faoliyatlari asosida paydo bo'lgan frazeologik birliklar;
- 2) aniq tarixiy davr, reallikni aks ettiruvchi frazeologik birliklar;
- 3) odamlar, urf - odatlar, milliy o'ziga xos vaziyatlarni aks ettiruvchi turmush, marosimlar asosida paydo bo'lgan ananali xarakterdagi frazeologik birliklar;
- 4) mamlakat geografiyasini aks ettiruvchi frazeologik birliklar;
- 5) adabiy manbalar, davlatga oid hujjatlar, matbuotdan paydo bo'lgan frazeologik birliklar.

Mehnat faoliyati asosida paydo bo'lgan frazeologik birliklarning haqiqiy kasbiy mazmunini, mehnatga munosabatini, har xil sohadagi vakillarning hayoti va turmush tarzini aks ettiradilar, bu esa ko'rib chiqilayotgan milliy kaloritni shartlaydi. Mehnat faoliyati va ijtimoiy munosabatlar bilan bog'liq frazeologik

birliklarning milliy madaniy komponenti ingliz va o'zbek tillarida taqqoslanganda aniq bilinadi.

Shunday qilib, xoxlagan natijaga olib kelmaydigan jamoaviy mehnat haqidagi tushunchani ingliz tilida “**too many cooks spoil the broth**” frazeologik birligi ifodalaydi. Ushbu frazeologik birlikning ingliz tilida quyidagicha aniqroq tasniflanadi: too many participants in the shaping of a plan, action or undertaking are likely to inject their personal opinion and styles into the work to the extent that the expected outcome or nature and style of the subject becomes altered beyond recognition or falls short of its originally conceived function. Ushbu frazeologik birlikda urg'u har bir kishi nimagadir o'zinikini kirati degan ma'noga ko'chadi, bu esa umumiy ishga imkon bermaydi. Bu frazeologizm o'z ma'nosi bo'yicha “ko'pchilik – po'qchilik” o'zbek tili frazeologik birligiga to'liq mos keladi. Kasbga oid frazeologik birliklar o'ziga xos har xil doiralarni har xil kasbiy guruhlarining hayoti va turmushining xususiyatlarini aks ettiradilar, masalan; ingliz tili frazeologik birligi **busman's holiday** – o'zining odatdagi mashg'ulotlari ustida bayram kunini o'tkazish – avtobus haydovchilariga bayram kunlarida yangi kelganlarni o'rgatishga to'g'ri kelgan haqiqatni aks ettiradi.

Tadqiqot qilinayotgan frazeologik birliklarning qishloq xo'jaligi mehnat sohasida ayrim haqiqiy tomonlarini metaforik kontekstda ko'rsatadi: ingliz tilida “**Sheep that have no shepherd**”, “**too much water drowned the miller**” o'zbek tilida “**ko'pdan quyon qochib qutulmas**”

Yoki “**all are not hunters that blow the horn**”, qurilish ishlari : **such carpenters, such chips, play carpenter, xizmat doirasidagi professorlar - every cook praises his own broth; too many cooks spoil the broth, oyoq kiyimchilar kasbi - the cobbler (shoemaker) must stick to his last, o'zbek tilida « duradgor bor joyda qo'lingni tiy, tilchi bor joyda tilingni tiy » tuvakchi kasbi - clay in the hands of the potter, oshpazlar « an ill cook can't lick his own fingers, ovchilar « all are not hunters that blow the horn » va boshqalar.**

Tilning o'ziga xosligi faqat uning moddiy tomonida emas, balki semantik tomonida ham namoyon bo'ladi. Frazeologik birlik tarkibida bo'lgan emotsional-ekspressiv jihatlar unga u yaratgan jamoa tomonidan beriladi. Bu belgilar faqat haqiqatni emas, balki unga bildirilgan munosabatni ham o'zida aks ettirishi zarurdir.

Kasbga oid frazeologik birlikning emotsional-ekspressiv xususiyatlari uni yaratgan jamoa tarixining tajribasi, etik va estetik jihatlariga ham bog'liqdir. Tajriba qilinayotgan frazeologik birliklar har xil ijtimoiy statuslar (holatlar) , aniq tarixiy davrga berilgan tilga oid jamoalar kasblar vakillarining idrokini aks ettiradilar.

Ustalik bilan yaratilgan frazeologik birliklar not to care a tinker's damn ishlatiladi , not to care a prince's damn semantik jihatdan mumkin emas.

O'zbek tilida “ molday yuvosh”

Demak biz ingliz va o'zbek tilidagi ba'zi bir kasbga oid frazeologik birliklarning emotsional va ekspressiv jihatlarini tahlil qildik.

Ingliz tilida o'zida salbiy jihatlarini anglatuvchi quyidagi frazeologik birliklar mavjud: soldier, tinker, tailor, barber, sailor, o'zbek tilida: misgar, sartarosh, foytinchi

“as quarrel some as a tinker”, “ to snore like a tinker”, “ as drunk as a tinker”,

“ not to care a tinker's curse (damn)”, “not worth tinker's damn”, “a gold digger”- boy oshiqlardan foyda yo'lida foydalanadigan ayol

Xullas, kasbga oid frazeologik birliklar mehnat faoliyatini, siyosiy tuzilishni, an'anali maishiy xarakterdagi hodisalarning haqiqatligini aks ettiradi. Ular maqollarda ham, maqol tipida bo'lmagan frazeologik birliklarda ham uchraydi. Ingliz tilidagi maqol va matallar chegara bilmaydi. Ular kommunikativ frazeologik birliklar sirasiga kiradi.

Ingliz va o'zbek tillarida kasbga oid frazeologik birliklar semantik jihatdan nominativ xarakterga ega bo'lgan va kommunikativ frazeologik birliklardir. Shuningdek, frazeologik birliklar emotsional-ekspressivlikni hosil qilib, obrazlilikni yuzaga keltiradi.

UMUMIY XULOSALAR.

1. Frazеologik birliklar tarkibida bir nechta so'z ishtirok etishiga qaramay, ular yagona ko'chma ma'no bilan birlashadi va emotsional-ekspressivlik hamda obrazlilikni ifodalaydi.
2. Frazеologik birliklarda xalqning urf-odati, madaniyati, yashash tarsi, o'ziga xos an'analari va milliy mentalitet o'z aksini topadi.
3. Frazеologik birliklar shakli va ma'no munosabatiga, etimologiyasida, zamonaviyligida va nutq uslublariga asoslanib farqlanadi. Ulardagi polisemiya serqirra ma'nolarga ega ekanligini ko'rsatadi.
4. Tilda mavjud sinonim frazeologik iboralar, omonim frazeologik birliklar biri ikkinchisidan obrazlilik yoki biror nutq uslublariga xoslanganligiga ko'ra farqlanadi.
5. Frazеologik birliklarning umumiy ma'nosi ikki komponentdan iborat: ekspressiv baho bo'yog'i hamda funktsional uslubiy bo'yoq.
6. Frazеologik birliklar hayotiy voqealar bilan bog'liq holda paydo bo'lgan va davr o'tishi bilan eskirib, iste'moldan chiqadi. Eskirgan frazeologik birliklar esa tasvirlanayotgan davr ruhini berish, personajlar nutqini individuallashtirishda ishlatiladi.
7. Kasbga oid frazeologik birliklar leksik-semantik, grammatik hamda emotsional-ekspressivlik xususiyatlariga ega. Ular kasb-korning o'ziga xos xususiyatlarini mujassamlashtiradi va obrazlilik yaratadi.
8. Kasbga oid frazeologik birliklar badiiy asarlarning ta'sirchanligini oshirishda, ularda milliy mentalitetni shakllantirishga xos xususiyatlar ifodalangan bo'ladi.
9. So'z san'atkorlari o'z asarlarining ta'sirchanligini, obrazlilikini oshirish maqsadida frazeologik birliklardan keng foydalanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.

I Ijtimoiy siyosiy adabiyotlar.

- 1) Karimov I. A. Yuksak manaviyat- yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat. 2008.
- 2) “Chet tillarni o'qitish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari” to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining (18/75sonli) qarori. “Ma'rifat” gazetasi 2012, 12 dekabr, 99-son.

II Ilmiy adabiyotlar.

- 1) Abdullayev A. Frazеologizmlarning ekspressivlik xususiyati. – T.:O'TA. 1976. 5-son.
- 2) Abdullayev A. O'zbek tilida ekspressivlikning ifodalanishi. – T.:Fan.1983.
- 3) Амосова Н. Н. Основы английской фразеологии. – М. 1963.-С.46-49.
- 4) Ахманова А. С. Словарь лингвистических терминов. – М.: СЭ.1966.- С.17-21.
- 5) Antrushina G.V. English Lexicology. – М. 1985.
- 6) Bafoyeva M. Badiiy nutqda frazeologik sinonimlardan foydalanish. – T.: O'TA. 2003. 2-son.-B.43-45.
- 7) Doniyorov X. Yo'ldoshev B. Adabiy til va badiiy stil. – T.: Fan. 1988.
- 8) Федуленкова Т.Н. Английская фразеология. – Архангельск, 2000.132с.
- 9) Gizburug G.V. A Course in Modern English Lexicology. – М. 1966.
- 10) Haydarov A., Choriyeva Z. Ingliz tilida frazeologik birliklarning semantik-grammatik va uslubiy xususiyatlari. Tilning leksik-semantik tizimi va qiyosiy tipologik izlanishlar: sinxroniya, dioxroniya materiallar to'plami. – T.: Muharrir. 2012. –B.8-10.
- 11) Haydarov A., Jo'raqulova G. Frazеologik iboralar tarjimasi xususida. Tilning leksik-semantik va qiyosiy tipologik izlanishlar: sinxroniya, dioxroniya materiallar to'plami. – T.: Muharrir. 2012. –B.10-13.

- 12) Hojiyeva Z. Выявление национально-культурной специфики фразеологических единиц: Современные подходы. – BuxDU Ilmiy Axboroti. 2012. № 3 (47). –В.96-99.
- 13) Jann Huizenga “Stories and idioms for real life” Oxford University Press.2000.
- 14) Кунин А.В. Курс фразеологии современного английского языка.–М. 1986.
- 15) Кунин А.В. Англо-русский фразеологический словарь. – М.1967.
- 16) Mamatov A.E. O’zbek tili frazeologizmlarining shakllanishi. – T. 1997.
- 17) Mamatov A. E. O’zbek tilida frazeologizmlarning shakllanishi masalalari. – T.: O’TA.2001.3-son.
- 18) Mamatov A. Almamatova Sh. Farzeologik transpozitsiya va uni o’rganish haqida. Uslubshunoslik va frazeologizmning dolzarb mummolari. Ilmiy-nazariy konfirentsiya materiallari. – Samarqand. 2007.-В.68-70.
- 19) Mamatov A. E. “Frazeologik stilistika masalalari” T; 1992.
- 20) Mamatov A. “Hozirgi o’zbek adabiy tilida leksik va grammatik norma muammolari” T; 1991.
- 21) Narimonova Z. Frazeologik iboralarning tarjimasini haqida.-T.:O’zMU to’plami. 2007.
- 22) Niyazmetova D. Ingliz tilida oziq-ovqat komponentli frazeologizmlarning lingvistik tadqiqi (Bibliya materiallari asosida). BuxDU Ilmiy Axboroti. 2012.4-son.
- 23) Ne’matov H., Rasulov R. O’zbek tili sistem leksikologiyasi. – T. 1995.
- 24) Панов Р.Н. Волкова Д.А. и другие “Современный русский язык”- М.1996.-С.120.
- 25) Pinxasov Y. O’zbek tili frazeologiyasi haqida.T; 1957.
- 26) Pinxasov Y. Hozirgi o’zbek adabiy tili leksikologiyasi – T.: Fan. 1968.
- 27) Qilichev E. O’zbek tilining praktik stilistikasi. – T.: O’qituvchi. 1985.

- 28) Qilichev E. Sinonimik iboralarning uslubiy xususiyatlari. – SamDU to’plami. 2006.-B.66.
- 29) Rafiyev A. Iboralar nutqimiz ko’rki. – T.:Fan.1985.
- 30) Raxmatullayev Sh. O’zbek tili frazeologiyasining ba’zi masalalari. – T.: Fan. 1966.-B.55.
- 31) Raxmatullayev Sh. Frazeologik birliklarning asosiy ma’no turlari. – T.: Akadem nashr. 1985.
- 32) Raxmatullayev Sh. O’zbek tilining frazeologik lug’ati. – T.: Qomuslar bosh tahririyati. 1982.
- 33) Rajabova M. Ingliz tilida kishi nomlari bilan kelgan frazeologizmlarning kelib chiqish tarixi. – BuxDU Ilmiy Axboroti. 2011. № 2 (42).-B.70-73.
- 34) Rajabova M. Inliz tilida joy nomlari bilan kelgan frazeologizmlarning lingvo-madaniy talqini. – BuxDU Ilmiy Axboroti. 2012. 4-son.
- 35) Shoabdurahmonov Sh. Hozirgi o’zbek adabiy tili. – T.: Fan.1980.
- 36) Телия В.Н. “Русская фразеология:семантический прагматический или лингвокультурологический аспекты”-М.:1966.
- 37) Виноградов В.В. Лексикология и лексикография. – М. 1977.
- 38) Yo’ldoshev B. Hozirgi o’zbek adabiy tilida frazeologik birliklarning funksional-uslubiy xususiyatlari. Filologiya fanlari doktori dissertatsiya avtoreferati. – T. 1993.-B.47.
- 39) Yo’ldoshev B. O’zbek frazeologiyasi va frazeografiyasining shakllanishi hamda taraqqiyoti. – Samarqand. 2007.
- 40) Yo’ldoshev B. Frazeologizmlarning adabiy til normasi munosabatiga doir. – T.: O’TA. 1992. 3-4 son.-B.37-42.
- 41) Yo’ldoshev B. “Frazeologik uslubiyat asoslari” Samarqand DU; 1999.
- 42) Yo’ldoshev B. Haliqov Q. “Frazeologizm qo’llash mahorati” SamarqandDU; 2007.

III Badiiy adabiyotlar

1. Abdulla Qahhor “ O’g’ri”-T.:G’afur g’ulom nomidagi nashriyot matbaa uyi ijodiy uyi.2002.
2. Abraham Merrit “ The Moon Pool”England ”All the year round” journal.1861.
3. Charles Dickens “Great Expectation” England.1837.
4. Charles Dickens “The Life and Adventures Of Nicholas Nickleby”.England.1839.

IV Internet materiallari.

- 1) <http://www.phrase.com>
- 2) <http://www.academia.edu>
- 3) <http://youngsearchersjournal.org>
- 4) <http://www.scientific-publications.net>
- 5) <http://www.europhrase.org>